O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

AL- XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo’lyozma huquqida

UDK:811.111+811.512.133

NURMATOVA MANZURA RAHIMBERGANOVNA

Ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari

5A 220102 – Lingvistika (ingliz tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

Prof. Yusupov.O’.Q

Urganch-2014

3. Ingliz tilidagi “yurak” so’z komponentli frazaeologizmlarning o’zbek tilidagi ekvivalentlari va ularning leksik-semantik xususiyatlari..... 67
4. Ingliz tilidagi “qo’l” va “oyoq” so’z komponentli frazeologizmlarning o’zbek tilidagi muqobil variantlarining tahlili..... 72
III bob bo’yicha xulosa 77
Xulosa..... 79
Adabiyotlar ro’yhati 83
Ilova...... 88

KIRISH

O’zbekiston mustaqil davlatga aylanishi natijasida ta’limning ahamiyati izchil oshib, u nafaqat iqtisodiyotni, balki butun jamiyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda eng muhim omillardan biriga aylandi. Aynan shuning uchun ham istiqlolning dastlabki yillarida ta’lim O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yo’nalishi deb e’lon qilindi. Prezidentimiz I.A.Karimov bugungi kunda mamlakatimiz uchun malakali kadrlar, shu jumladan malakali tarjimonlar, malakali chet tili o’qituvchilari havodek zarur bo’lib qolganligini ta’kidlab kelmoqda.

Shu munosabat bilan prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlaydi: “Qayd etib o’tilsinki, mamlakatda O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarda o’qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg’un kamol topgan, o’qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo’naltirilgan tizim yaratildi. … Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o’rganishni tashkil qilish, shuningdek, o’qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o’quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.” [1;5].

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo’lsak, bugungi kunda mamlakatimiz uchun malakali kadrlar, shu jumladan malakali tarjimonlar, malakali chet tili o’qituvchilari havodek zarur bo’lib qoldi. Shuning uchun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida maktab, litsey, kollej va oliy o’quv yurtlari uchun yangi milliy dasturlar, darsliklar, uslubiy qo’lanmalar yaratildi va yaratilmoqda.

Chog’ishtirma tilshunoslik chet tili o’qitishning lingvodidaktik asosini tashkil etadi. Shu sababdan yurtimizda xorijiy tillarni ona tili bilan qiyoslab o’rganish va ularni tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim masalalardan biri.

Hozirgi zamon tilshunosligida, shu jumladan chog’ishtirma tilshunoslikda, til qatlamining asosini tashkil qiladigan frazeologik qatlamni o’rganish eng asosiy vazifalardan biri bo’lib qoldi.

Frazeologik birliklarning muhim xususiyati shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib, ilm- fanning har bir sohasida tadqiq etilmoqda. Natijada frazeologiya tilshunoslikda alohida soha sifatida paydo bo'ldi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi bosqichda tillarning frazeologik majmuasini ilmiy o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunday tadqiqotlar natijasida frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida qaror topdi. Bu holat nutqda keng qo'llanib kelinayotgan frazeologizmlarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni taqozo qiladi**.**

Frazeologizmlar leksika bilan birgalikda tilning lug'aviy boyligini tashkil etadi. So'zlar tilning barcha leksik, semantik, grammatik sathlarida keng o'rganilayotgan bo'lsada, frazeologizmlar bu sathlarda har tamonlama o'rganiladi deya olmaymiz. "Frazeologizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lish yo'llari kabilar o'z tadqiqotchilarini talab qiladi"[6;39] Mazkur muammolarni monografik yo'sinda tadqiq etish esa tilshunosligimiz uchun muayyan ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi yanada shundaki, bir tomonda xorijiy tillarga qiziqishning o'sishi bo'lsa, ikkinchi tomondan ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini har ikklala tilda qiyosiy tipologik o'rganish va ularni o'xshashlik va farqli tomonlarini umumlashtirishdir.

Mazkur masalani o'rganish uchun turli milliy madaniyatlarni ifodalovchi tillardagi vositalarni qiyoslash, milliy mintalitet va uni ifodalovchi xususiyatlarini tahlil etish lozim.

Tadqiqot obekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar olindi. Shuningdek, Sh.Rahmatullaev, H.Berdiyorov, R.Rasulov, B.Yo'ldashev lar hamkorligida M.Sodiqova, E.Umarov tomonidan tuzilgan o'zbek tilining frazeologik lug'atlari va ingliz tilidagi Cowie, A.P.; R. Mackin and McCaig, I.R.lar tomonidan tuzilgan "Oxford Dictionary of English Idioms", "Macmillan English dictionary" for advanced learners va Michael McCarthy, Felicity O'Dell

larning “English phrasel verbs in use” lardagi frazeologik materiallardan foydalanildi.

Tadqiqot predmeti esa ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologik birliklarning leksik-sematik xususiyatlarini tadqiq etish orqali ularning o’xshashlik va farqli tomonlarini umumlashtirishdir.

Tadqiqot maqsadi. O’zbekshunoslikda ham, ingliz tilshunosligida ham frazeologizmlar grammatik, semantik, uslubiy yo’sinda o’rganilgan bo’lishiga qaramay**,** ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologik birliklarning leksik-sematik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik , lingovamadaniy va pragmatik jihatdan hali to’la-to’kis yoritib berilishi muammoligicha qolmoqda. Shunga ko’ra, mazkur tadqiqotda, ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologik birliklarning leksik-sematik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik , lingovamadaniy va mavzuviy jihatdan tadqiq etish asosiy maqsad qilib olindi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish lozim deb topildi:

1. Frazeologik birliklarning nazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlab olish;
2. “Frazeologik birlik” terminining qo’llanilish xususiyatlarini aniqlash;
3. Frazeologizmlarni barqaror birikmalar, birikma terminlardan farqlash, frazeologizmlar tarkibidagi u yoki bu leksik-semantik va tematik guruhlarga tegishli so’zlarni tahlil qilish;
4. Ingliz va o’zbek tillaridagi ba’zi frazeologizmlarda sinonimiya, antonimiya va polisemiya hodisalarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish, o’xshashlik va farqli jihatlarni o’rganish;

Ingliz va o’zbek tillaridagi samotik frazeologizmlarni tematik guruhlarga ajratib, ularni ekvivalent va ma’nosidan iborat bo’lgan kichik hajmdagi lug’at yaratish(na ingliz tilida, na o’zbek tilida hali bunday lug’at yaratilmaganlikini inobatga olgan holda).

Himoyada qo’yiladigan asosiy masalalar va farazlar quyidagilardan iborat:

1. Frazeologik birliklar tilshunoslikda asosiy qatlamdir, chunki frazeologiya alohida soha sifatida rivojlandi;

2. Tilning frazeologik qatlami ongning o'ziga xos kognitiv mikrostrukturasini tashkil etib, o'z semantikasida madaniyatning bir bo'lagini aks ettiruvchi til birligi- lingvokulturema va axborotni saqlovchi, uzatuvchi va qayta ishlovchi kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi;

4. Ingliz va o'zbek tillaridagi faol frazeologizmlarida ham xuddi so'zlarda bo'lgani kabi, sinonimlik, antonimlik va ko'p ma'nolilik hodisalari mavjuddir;

Tadqiqotning mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Dissertatsiyada V.L.Arxangeliskiy, A.M.Babkin, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, V.M.Mokienko, V.N.Teliya kabilarning, turkiyshunoslardan esa S.Kesenbaev, Sh.Rahmatullaev, G.A.Bayramov, G.X.Axunzyanov, Z.G.Uraksin, L.K.Bayramova, M.F.Chernov, B.Yo'ldashev kabi tilshunoslarning ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlaridan foydalanildi. Ushbu magistrlik ishida asosan 200dan ortiq somatik frazeologizmlardan foydalanilgan bo'lib, ular Sh.Rahmatullaev "O'zbek tili izohli frazeologik" lug'ati H.Berdiyorov, R.Rasulov, B.Yo'ldashevlar hamkorligida M.Sodiqova, E.Umarov tomonidan tuzilgan o'zbek tilining frazeologik lug'atlari va ingliz tilidagi Cowie, A.P.; R. Mackin and McCaig, I.R. tomonidan tuzilgan "Oxford Dictionary of English Idioms", "Macmillan English dictionary" for advanced learners va Michael McCarthy, Felicity O'Dell larning "English phrasel verbs in use" – kabi o'zbek va ingliz tillariga doir izohli va frazeologik lug'atlar tanlab olindi.

Tadqiqot uslublari va uslubiyati. Ushbu ishda qiyosiy metod, statistik metod, kontekstual tahlil metodi, kross-madaniy tahlil va boshqalardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va nazariy ahamiyati. Tadqiqotimiz madaniyatlararo kommunikatsiya asoslari, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi nazariya hamda metodlarga asoslandi.

Tadqiqot natijalari umumiy tilshunoslik, til va jamiyat, til va tafakkurning o’zaro ta’siri, kognitiv bilish jarayonida tilning o’rni va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot uchun to’plangan til materiallari va ularning tahlilidan umumiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika, leksikologiya, kognitiv tilshunoslik kurslari bo’yicha ma’ruzalar o’qitishda, filologiya fakultetlari talabalari uchun esa o’quv qo’llanmalari, darsliklar, lug’atlar tuzish uchun xizmat qiladi .

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan izohlanadi:

–ishda ilk bor ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil etildi;

–ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologizmlar tarkibida so’zlarning qo’llanish doirasi va imkoniyatlari haqida so’z bordi. Frazeologizmlar tarkibidagi muayyan leksik-semantik va tematik guruhlarga tegishli bo’lgan leksemalarning ifoda etilishi aniqlandi va faol ishtirok etuvchi so’zlar qiyosiy tahlil qilindi;

–tadqiqotda har ikki tildagi mavjud ayrim frazeologizmlarning ijtimoiy-madaniy, kognitiv-psixologik va fiziologik xususiyatlarini aniqlash yordamida ularning shakllanish asoslari ko’rsatildi;

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati va ilovalardan iborat. Birinchi bob uch qismdan va o’z ichida fasllardan iborat. Ikkinchi va uchunchi boblar to’rt qismdan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 90bet.

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARINING FRAZEOLOGIZMLARI TO’G’RISIDAGI NAZARIY QARASHLAR

1.1.Ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologizmlar va ularning o’ziga xos xu-susiyatlari.

Frazeologiya bo’yicha dastlabki umumnazariy, fundamental ilmiy asarlar Sh.Balli va V.V.Vinogradovlar tomonidan yuzaga keldi. Ammo, to 40-50 yillargacha na rus tilshunosligida va na turkiyshunoslikda frazeologizmlar keng planda o’rganilmagan. 40-50 yillardan keyin esa frazeologizmlarning tadqiqiga sezilarli darajada rus tilshunoslaridan: V.L.Arxangeliskiy, A.M.Babkin, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, V.M.Mokienko, V.N.Teliya kabilarning turkiyshunoslardan esa S.Kesenbaev, Sh.Rahmatullaev, G.A.Bayramov, G.X.Axunzyanov, Z.G.Uraksin, L.K.Bayramova, M.F.Chernov, B.Yo’ldashev kabi tilshunoslarning ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlari ta’sir ko’rsatdi. Ular o’z tadqiqotlarida frazeologizmlarning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiati va stilistik xususiyatlarini, ularning paydo bo’lish manbalari va shakllanish xususiyatlari, frazeologik ma’noning o’ziga xos xususiyatlarini, frazeologizmlarning shakl va ma’no turlariga ko’ra turlari, frazeologizmlarning grammatik tabiati va frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini atroflicha ochib bergan bo’lsalar, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, L.I.Royzenzon, V.L.Arxangelskiy, A.G.Nazaryan va boshqa tilshunoslarning tadqiqotlari frazeologiyada yangi ilmiy tekshirish sohasiga ya’ni frazeologik shakllanish masalalariga bag’ishlangan. O’zbekshunoslikda bu masalaning dastlabki tadqiqotchisi sifatida A.Mamatovning ilmiy tadqiqotini misol qilish mumkin.

Umumjahon tilshunosligida frazeologiyaning umumiy masalalari dastlab Sh.Balli tomonidan bir qadar o’rganib chiqildi. U o’z asarlaridan birida shunday degan edi:“Phraseology is an intermediary field of linguistics, it can be considered as being close both to vocabulary studies, (because it studies fixed word combinations characterized by a unitary meaning), and to syntax. Moreover, given the expressive nature of phraseological phenomena, these have also been associated to stylistic”[44;66-87]. Lekin uning turli xil tilshunoslik sohalari bilan bog’liqligi sababli, bugungi kunda frazeologiya o’z tekshirish obye’ktiga, tadqiq etish yo’li va usullariga ega bo’lgan fan sifatida shakllandi.

Sh. Balli o’zining “Stilistikadan ocherklar”, “Fransuz tili stilistikasi” kabi asarlarida so’z birikmalarini sistemalashtirib, ularning leksik-grammatik xususiyatlari, anglatgan ma’nolari va sintaktik o’ziga xosligidan kelib chiqadigan, yahlitligicha qo’llanadigan birliklar ekanligini isbotlashga harakat qildi. Sh. Balli semantika frazeologizmlarni mutloq belgisi ekanligini asoslab, quyidagi fikrni ham bildiradi:“Tashqi belgi ichki belgiga nisbatan ahamiyatli va keng qimmatlidir”.[11;12-13]. Semantik xususiyat Sh. Balli asarlarida mutloq bosh belgi sifatida qaralishi, tarixiy-semantik asoslarning inkor etilishi kabi munozaralarga sabab bo’ldi. Ammo, bu qarashlar frazeologiya masalalarini yanada kengroq tadqiq etish, o’rganish va uning alohida fan sifatida shakllanishiga ta’sirini o’tkazdi. Sh. Ballining frazeologik tadqiqotlaridan so’ng ancha vaqt o’tgandan so’ng frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllana boshladi va uning turli qirralariga bag’ishlangan frazeologik lug’atlar, ilmiy maqolalar, dissertatsion ishlar, monografik kuzatishlar yuzaga keldi. Frazeologiya hozirgi kunda tilshunoslikning grammatika, leksikologiya, fonetika va fonologiya bo’limlari kabi o’z tekshirish metodiga va o’rganish obye’ktiga ega bo’lgan alohida sohaga aylandi.

Frazeologizmlar lug’aviy birlik bo’lganligidan u nutq jarayonida gaplar tarkibida bir mustaqil so’z kabi harakat qiladi – bir gap bo’lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi.

O’zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilishdan oldin, ba’zi asosiy nuqtayi nazarlar ya’ni terminologiya va ta’riflarga murojaat etish lozimdir. Asosan, frazeologik birlik nima va uning eng to’g’ri va aniq ta’rifi qanday kabi qarashlarga to’xtalamiz. Frazalar va idiomalar tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologik birliklarni belgilash uchun qo’llaniladigan va eng ko’p uchraydigan terminlardir. Ba’zan bu ikkala terminlar o’rtasida hatto aniq bir farq bo’lmaydi va ikkala terminlar ham amaliy jihatdan teng ma’no beradi. Frazeologiya bilan shug’illanuvchi adabiyotlarda har xil terminlar, jumladan, *Idiom (idioma)* (Cowie et al, 1983), *phraseme(fazema)* (Mel'cuk et al. 1995) yoki *word-group(so’z gu ruhi)* (Glaser,

1998) kabi terminlar xuddi shu kategoriyani ifodalash uchun ishlatiladi. Ularning har biri turli xil mezonlar asosida ta'riflangan va shu sababdan, har bir termin frazeologiyani keng va tor ma'noda tushunishga sababchi bo'ladi.

O'zbek tili kontekstlarida esa hozirgi kunda, frazeologizmlar *frazeologik chatishma (ibora), frazeologik birlik, frazeologik birikma* kabi atamalari bilan yuritiladi. Turkiyshunoslikda, xususan, o'zbekshunoslikda frazeologiya sistem ravishda, hanuzgacha to'la o'rganib chiqilgan deya olmaymiz. Frazeologizmlarning o'rganilish tarixiga e'tibor berilsa, ular ayrim tilshunoslar tomonidan **leksik so'z birikmalar** yoki **leksik birlashmalar** tarzida, sintaksisning o'rganish obyektiga kiritilganligini, boshqalari tomonidan esa ularni **leksikalizatsiyalashgan birikmalar** tarzida atalib, tilshunoslikning mustaqil o'rganish obyekti bo'lishi kerakligi uqtirilganligini ko'rish mumkin. [28;15].

Frazeologizmlarning farqlovchi belgilari bir nechta belgilar yig'indisidan iborat va tilshunoslikda frazeologizmlarning boshqa til birliklaridan farqlashda ishlatiladigan belgilarni aniqlashda turli xil qarashlar mavjud. Bu belgilardan eng yetakchisini aniqlashda ham har xil fikrlar yuritilgan. Masalan, A.I.Smirnitskiy frazeologik xususiyatning eng muhim belgisi "so'zga muqobillik", N.N.Amosova "muqim kontekst"li bo'lishi kerakligini, S.G.Gavrin asosiy mezon "funksional-semantik butunlik" bo'lishi kerakligini aytadi. A.V.Kunin esa frazeologiyani keng ma'noda tushunib, uning obyektiga "murakkab ma'noli" barcha turg'un birikmalarni kiritadi. A.V. Kunin frazeologiyaning pastki chegarasiga ikki komponentli shaklni, yuqori chegarasiga esa qo'shma gap tarkibli birikmalarni kiritadi. Shunga ko'ra qo'shma gap tarkibli frazeologizmlar faqat maqollar bo'la oladi. Shu ma'noda ma'qollarni ham frazeologiya obyektiga kiritadi.[28;24]

Frazeologiya obyektini keng ma'noda tushunuvchi turkiyshunos tilshunos S.K.Ksenebaev barcha turg'un birikmalarni frazeologiyaga kiritadi va turg'unlik hamda yahlit holda mavjudlik belgilari ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyatdir- deb ta'kidlaydi**[**13;28]. Ammo, tilshunos A.Mamatovning fikricha

turg’unlilik va tayyor holda mavjudlilik faqatgina frazeologizmlarga emas, balki barcha turg’un birikmalarga ham xos xususiyatdir. Shu bilan birga, qayd etilgan belgilar frazeologizmlar uchun bosh farqlovchi belgi ham bo’la olmaydi[28;16].Bizning fikrimizcha, turg’un bog’lamalar tilda tayyor holda yahlit mavjud bo’lishini hisobga olgan holda, barcha turg’un birliklarni frazeologiya sirasiga kiritish mumkin emas.

S.N. Muratovning fikricha, frazeologizmlar turg’un so’z birikmalarining bir tipidir[30;130]. U semantik yahlitlilik, obrazlilik va ko’chma ma’nolanish frazeologizmlarning erkin bog’lamalardan farqlovchi belgilaridir deb ko’rsatadi. Ammo bu fikni to’ldirgan tarzda, faqat shu belgilar frazeologizmlarning farqlovchi belgilari bo’la olmaydi, balki belgilar yig’indisidan iborat bo’ladi-deb ta’kidlaydi A.Mamatov o’z ilmiy ishida.

Turkiyshunoslikda va barcha tilshunoslikda bo’lgani kabi Yevropa tilshunosligida ham frazeologiyani tor ma’noda tushunuvchilar mavjud. Boshqird tilshunosi Z.G. Uraksinning asarlarida frazeologiya obyektini tor tushunish g’oyasi ilgari surilganligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Olim “Boshqird tili frazeologiyasi” monografiyasida tayyor holda mavjud, takror qo’llanuvchi, a’zolari orasida o’zaro bog’lanishi turg’un va yahlit ma’noli frazeologizmlarni tahlil qilib, frazeologizmlarni turg’un birikmalarning bir qismi, deb hisoblaydi va boshqa tipdagi turg’un birikmalardan obrazliligi bilan farqlanishini ko’rsatadi. Chunonchi muallif “frazeologizmlarda obrazli ma’no global xususiyatga ega” –deb ta’kidlaydi [36;22].

Shuningdek, frazeologik doirani tor ma’noda tushunuvchi olimlar qatoriga ozarbayjon tilshunosi G.A.Bayramov, tatar tilshunoslari L.K.Bayramova, F.A.G’aniev, chuvash tilshunosi M.F.Chernovlarni kiritish mumkin.

1979 yilda R.Ginzburg va uning hamkasblari frazeologik birliklarga quyidagicha ta’rif beradi:

“phraseological units are non-motivated word groups that cannot be freely made up in speech but are reproduced as ready-made units” [47;74].

O’z navbatida Glaser frazeologik birliklarni quyidagicha ta’riflaydi:

“a more or less lexicalized, reproducible bilexemic or polylexemic word-group in common use, which has syntactic and semantic stability, may be idiomatized, may carry connotations, and may have an emphatic or intensifying function in a text” Glaser [49;125].

Glaserning yondashuviga muvofiq tarzda ispan frazeologisti Corpas Pastor frazeologik birliklarni *unidades fraseologicas* deb ataydi va unga quyidagicha ta’rif keltiradi:

“*Combinaciones estables formadas por al menos dos palabras y cuyo limite superior se situa en la oracion compuesta. Se caracterizan por la alta frecuencia de aparicion en la lengua y de coaparicion de sus elementos integrantes, asi como la institucionalizacion, la estabilidad, la idiomaticidad y la variacion potencial que dichas uni. dades presentan en diverso grado”*[46 ;29].

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan ko’rinadiki, Yevropa tilshunosligida frazeologik birlikning asosiy 2 ta xususiyatini ko’rsatish mumkin: **Barqarorlik** va **semantik yahlitlilik**. Bu ikkala xususiyat ham aslida bir biri bilan o’zaro bog’liqdir. Corpas Pastor boshqa tilshunoslarning fikrini umumlashtirgan holda frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlarini tushuntiradi. Corpas Pastorga ko’ra frazeologik birliklar :

- **Turli xil so’zlardan tashkil topgan iboralar**
-

Ammo, V.V.Vinogradovni fikri ilmiy ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda, uning qarashlari qator tilshunoslar tomonidan tanqid ham qilingan. Jumladan, I.Mel'cuk frazeologik chatishma va frazeologik butunlikni bir biri bilan farqlab turuvchi belgida, aslida bir biriga bog'lab turuvchi umumiy yaqinlik va hatto bog'liqlik mavjud, deb hisoblaydi va"The borderline separating *unities* from *fusions* is vague and even subjective, because it varies according to the linguistic and cultural experience of the individual. In fact, for some people, a given expression has a figurative sense, which is not yet completely fossilized; while for others the same expression is completely opaque"- deb ta'kidlaydi va fikrini davom ettirib **"**The assignment of an expression to this category would depend on the different linguistic and cultural experience of the speaker", deb uqtiradi. Chunki biror nutq gapiruvchi biror frazeologik birlikni hali to'liq ko'chma ma'noga aylantirmay ishlatishi va ayni paytda boshqa bir shaxs uni to'liq ko'chma ma'noda ishlatishi mumkin. Va bu madaniy tajriba yoki lingvistik xilma- xillikka bog'liq.

N.N.Amosova ham V.V.Vinogradovning qarashlariga tanqidiy fikrni bildirib**:"**устойчивость словесного комплекса в виде аксиомы, не требующей ни определения, ни уточнения, нельзя объяснить спецификой русского материала**"**,-deydi va ".....понятие немотивированность фразеологических единиц не опирается в работах В.В.Виноградова на какие-либо конкретние. Объективно устанавливаемые признаки**"**[9;7-8] – deb ta'kidlaydi. Demak, olimning tan olishicha, frazeologik chatishma va frazeologik butunlik o'rtasidagi farqni ajrata olish deyarli mumkin bo'lmay qoladi.

V.V.Vinogradovning uchunchi guruh frazeologik birliklari:

Frazeologik qo'shilmadir.Olim, bunda bir komponentning ko'chma ma'noga ega bo'lishi va bu komponent ma'lum bir qurshovdagina frazeologik ma'no kasb etishini ta'kidlaydi. Bunday frazeologizmlarga ingliz tilidagi:

Masalan: ***to be at one's wits' end***, ***to be good at something***, ***to be a good hand at something***, ***to have a bite***, ***to come off a poor second***, ***to come to a sticky end*** *(coll.),* ***to look a sight*** *(coll.),* ***to take something for granted***, ***to stick to one's word***,***to stick at nothing***.- kabi misollarni keltirish mumkin.

Arnold bu turdagi frazeologizmlar haqida shunday deydi: “they are not only motivated but contain a component which is used in its direct meaning, while the other is used figuratively”[10;170].

Ammo, Mamatov.A o’zining ilmiy tadqiqotida agar V.V.Vinogradovning fikriga suyaniladigan bo’linsa, frazeologik butunlik tarkibiga texnik va ilmiy birikma terminlar, qanotli so’z va birikmalar, kalamburlar, maqol va matallarni ham kiritishga to’g’ri kelishini va natijada frazeologizmlarning doirasi yanada kengayib ketishi haqida aytadi va ular ichida semantik qayta shakllanmagan va ko’chma ma’nolanmagan turlari ham bir talay ekanligini hisobga olish va ularni boshqacha bir tarzda guruhga kiritish lozim, degan fikrni jamoatchilik hukmiga havola etadi.

I.A.Kuninning frazeologizmlarning tasniflashiga ko’ra ular quyidagicha bo’lishi lozim:

1.Idiomalar yoki idiomatik iboralar- to’liq yoki qisman ko’chma ma’noga asoslangan. Ingliz tilidagi: ***to show the white feather, an odd (queer) fish-*** kabi misollarni keltirish mumkin**.**

2.*Semi-idiomalarda** ham o’z ma’no ham figurative ma’nolarga ega bo’ladi**.** Masalan**: *chain reaction, to lay down one's arms.

3.Frazeomatik butunlik. Bu turdagi frazeologizmlar o’z ma’nosida ishlatiladi va bu to’liq ma’no beradi. Masalan: ***to raise one's eyebrows, to pay attention (a visit), to clean one's fits (teeth), at the best*** [23;64].

Ingliz tili frazeologik birliklarning struktural tasnifi.

Professor I.A.Smirnitskiy frazeologik birliklarning tuzilishi bo’yicha klassifikatsiya etgan. Ularni so’zlar bilan solishtirgan. U frazeologik birliklarni

tuzilishi bo'yicha tasniflaganda birinchi qatlam va ikkinchi qatlamlarga bo'lib tasniflagan. Birinchi qatlam frazeologizmlarni yasama so'zlar bilan qiyoslagan, chunki yasama so'zlarda bitta o'zak bo'ladi va odatda qo'shma so'zlarda ikkita o'zak bo'lishini hisobga olgan holda, ikkinchi qatlam frazeologizmlarni qo'shma so'zlar bilan taqqoslaydi.

Birinchi guruh frazeologizmlari orasidan 3 ta struktural xilni ko'rsatadi:

- "**give up"(fe'l+predlog) turidagi frazeologizmlar:** *to art up, to back up, to drop out, to nose out, to buy into, to sandwich*- kabi misollarni keltirish mumkin.
- **"to be tired" turidagi frazeologizmlar**: Bur turdagi ba'zi frazeologizmlar majhul nisbatdagi stukturani esga soladi. Ammo, ular tarkibidagi predloglar bilan farqlanadi.Majhul nisbatda faqat "by" yoki "with" predloglari ishlatiladi. Masalan: *to be tired of, to be interested in, to be surprised at va h.k.*
- **Predlogli –nominal frazeologizmlar:** Bu turdagi frazeologizmlar predlog, bog'lovchi, ravish- kabi o'zgarmas so'zlar bilan ekvivalentdir. Shuning uchun ham, bu turdagi frazeologizmlarda grammatik markaz bo'lmaydi va otli bo'lak semantik markaz bo'ladi. Masalan: **on the doorstep (quite near), on the nose (exactly), in the course of, on the stroke of, in time, on the point of**- kabilar.

Ikkinchi guruh frazeologizmlar orasida A.I.Smirnitskiy quyidagi struktural turdagi birliklarni ko'rasatadi:

- **Aniqlovchi-nominal turidagi frazeologizmlar:** ***a month of Sundays, grey matter, a millstone round one's neck***- kabi. Bu turdagi frazeologik birliklar otlar bilan ekvivalent bo'ladi va ular qisman yoki to'liq idiomatik bo'lishi mumkin. Qisman idiomatik birliklarda odatda birinchi komponent idiomatik bo'ladi: ***high road***-kabi. Boshqa tipida esa ikkinchi komponent idiomatik bo'ladi: ***first night***. Ko'pincha esa ikkala komponent ham idiomatik bo'ladi: ***red tape, blind alley, bed of nail, shot in the arm***

- **Fe’l-nominal frazeologik birliklar.** Masalan: ***to read between the lines , to speak BBC, to sweep under the carpet va h.k.*** Bu turdagi birliklarda grammatik markaz fe’l, ko’pgina holatlarda semantik markaz nominal bo’ladi: ***to fall in love.*** Ba’zi holatlarda esa fe’l ham grammatik ham semantik markaz bo’lishi mumkin***:not to know the ropes.*** Shuningdek bu turdagi frazeologik birliklar to’liq idiomatik bo’ladi***: to burn one’s boats, to vote with one’s feet, to take to the cleaners*** va h.k.
- **Frazeologik takrorlanish***: now or never, part and parcel , country and wester* va h.k. Bu turdagi frazeologik birliklari antonim komponentlardan tashkil topishi mumkin: ***ups and downs , back and forth;*** va ko’pincha alliteratsiya yordamida yasaladi***: cakes and ale, as busy as a bee.*** Frazeologik takrorlanishdagi komponentlar bog’lovchilar yordamida birikadi. Ularda grammatik markaz bo’lmaydi va ular sifat yoki ravish bilan ekvivalent bo’la oladi. Bu turdagi frazeologik birliklar ham qisman yoki to’liq idiomatik bo’lishi mumkin: e.g. cool as a cucumber (qisman), bread and butter (to’liq).

Ingliz tili frazeologik birliklarning sintaktik tasnifi.

Frazeologik birliklar ham xuddi mustaqil so’z turkumlari kabi tasnif etilishi mumkin. Bu turdagi tasnif proffesor I.V.Arnold tomonidan taklif qilingan. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin[10;66].

- **Predmetni, shaxsni yoki tirik mavjudotni ifodalovchi ot frazeologizmlar**: *bullet train, latchkey child, redbrick university, Green Berets* va h.k.
- **Ish-harakatni, holatni, his-hayojonni ifodalovchi fe’l frazeologizmlar:** *to break the log-jam, to get on somebody’s coattails, to be on the beam, to nose out, to make headlines* va h.k.
- **Navni ifodalovchi sifat frazeologizmlar:** *loose as a goose, dull as lead* va boshqalar.

- **Ravish frazeologizmlar:** *with a bump, in the soup, like a dream, like a dog with two tail*- kabi frazeologizmlar.
- **Predlog frazeologizmlar.** Bu turdagilarga *in the course of, on the stroke of* – kabi iboralarni misol qilish mumkin.
- **Undov frazeologizmlar*ga misol qilib*** *«Catch me!», «Well, I never!»larni* keltirish mumkin.

Ingliz tili frazeologizmlarining shakllanish manbalari.

Frazeologik birliklarni kelib chiqishiga ko'ra tasniflash, ularni ma'nosini to'liq tushunib yetish uchun xizmat qiladi. Barcha frazeologik birliklar kelib chiqishiga ko'ra ikkita katta guruhga bo'linishi mumkin: **native(tub)** yoki **borrowed(o'zlashtirilgan).**

Tub frazeologik birliklarning asosiy manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. **Terminlogik yoki biror kasbga oid bo'lgan leksemalar asosida shakllangan frazeologizmlar.** Masalan**:** fizika: center of gravity (центр тяжести), specific weight (удельный вес); navigatsiya: cut the painter (обрубить канат) — 'to become independent', lower one's colours (спустить свой флаг) — 'to yield, to give in'; harbiy soha:, fall into line (стать в строй) — 'conform with others';
2. **Ingliz adabiyoti asosida shakllangan frazeologizmlar:**the green-eyed monster — 'jealousy" (W.Shakespeare); like Hamlet without the prince — 'the most important person at event is absent' (W.Shakespeare); fall on evil days— 'live in poverty after having enjoyed better times' (J.Milton); a sight for sore eyes — 'a person or thing that one is extremely pleased or relieved to see' (J.Swift); how goes the enemy? (Ch. Dickens) — 'what is the time?'; never say die — 'do not give up hope in a difficult situation' (Ch.Dickens);
3. **Ingliz urf-odatlari va an'analari asosida shakllangan frazeologizmlar:** baker's dozen — 'a group of thirteen'. Qadimda ingliz savdogarlari

nonvoylardan 12 ta bo'lka non o'rniga 13 tani qa'bul qilib olishgan. 13-si savdogarlarning daromadi hisoblangan.

4. **Irim-sirimlar va afsonalar asosida shakllangan frazeologizmlar:**. *a black sheep — 'a less successful or more immoral person in a family or a group'*. Qadimda odamlar "black sheep" iblisning belgisi ekanligiga ishonishgan. *The halcyon days — 'a very happy or successful period in the past'*. Qadimgi afsonaga ko'ra halcyon (зимородок) o'z poloponlarini dengizdagi inlarida uchishga o'rgatgan va bu paytda dengiz tamoman tinch bo'lgan (taxminan 2 xafta).
5. **Tarixiy voqea, shaxslar yoki faktlar asosida shakllangan frazeologizmlar:** *as well be hanged {or hung) for a sheep as a lamb — 'something that you say when you are going to be punished for something so you decide to do something worse because your punishment will not be any more severe'*. Qadimgi qonunlardan biriga ko'ra, bitta qo'y o'g'irlagan odam o'lim jazosiga mahkum qilingan, shuning uchun bu ko'proq narsa o'g'irlashga arziydi chunki undan og'ir jazo yo'q deb hisoblangan. *to do a Thatcher — 'to stay in power as prime minister for three consecutive terms(birinchi Konservativ minister Margaret Thatcher)';*
6. **Kundalik turmush tarzi asosida shakllangan frazeologizmlar:***carry coals to Newcastle — 'to take something to a place where there is plenty of it available'*. Newcastle - shimoliy Angliyadagi juda ko'p neft ishlab chiqriladigan shaxar; *to get out of wood — 'to be saved from danger or difficulty'*.

O'zlashtirilgan frazeologizmlarning asosiy manbalari quyidagilar:

1. **Muqaddas bitiklar asosida o'zlashtirilgan frazeologizmlar:** *the left hand does not know what the right hand is doing — 'communication in an organization is bad so that one part does not know what is happening in*

another part'; the kiss of Judas — 'any display of affection whose purpose is to conceal any act of treachery' (Matthew XXVI: 49);

2. **Qadimgi afsonalar va miflar(turli xil dinlarga va urf-odatlarga tegishli bo'lgan) asosida shakllangan frazeologizmlar:** *to cut the Gordian knot — 'to deal with a difficult problem in a strong, simple and effective way'* (qadimgi afsonada aytilishicha Gordius, qadimgi mamlakatning qiroli, juda chigal bir tugunni tugadi va bu tugunni kim yecha olsa, o'sha odam Osiyoni boshqaradi deb bashorat etadi. Bu tugun Buyuk Aleksandrning qilichi bilan kesiladi); *a Procrustean bed — 'a harsh, inhumane system into which the individual is fitted by force, regardless of his own needs and wishes'* (Gretsiya mifologiyasidan. Procrustes —sayohatchilarni kravotga yotishga va ularni shu kravotni uzunligiga mos bo'lishiga majburlagan o'g'ri. Agar kalta bo'yli sayohatchi bo'lsa ularni qo'l oyoqlarini cho'zishga buyurgan, agar kravotdan uzun bo'lsa ortiqcha uzunlikni kesib tashlagan).
3. **Dunyodagi tarixiy voqealar va dalillar asosida o'zlashtirilgan frazeologizmlar:** *to cross the Rubicon — 'to do something which will have very important results which cannot be changed after'.* Julius Caesar – Italyadagi Rubicon daryosini kesib o'tgandan keyin qilgan g'alabasidan so'ng urush boshlagan ; *to meet one's Waterloo — 'be faced with, esp. after previous success, a final defeat, a difficulty or obstacle one cannot overcome* (Napoleonning Waterloo(1815) dagi mag'lubiyatidan)';
4. **Ingliz tilining variantlari asosida o'zlashtirilgan frazeologizmlar:** *a heavy hitter— 'someone who is powerful and has achieved a lot'* {American); *a hole card — 'a secret advantage that is ready to use when you need it'* (American); *be home and hosed — 'to have completed something successfully'* (Australian);
5. **Boshqa tillardan o'zlashgan frazeologizmlar:** *second to none — 'equal with any other and better than most'* (Lotin tilidan:nullisecundus); *for smb's fair eyes — 'because of personal sympathy, not be worth one's*

deserts, services, for nothing' (Fransuz tilidan: pour les beaux yeux de qn.); *the fair sex — 'women'* (Fransuz tilidan: le beau sex); *let the cat out of the bag — 'reveal a secret carelessly or by mistake'* (Nemis tilidan: die Katze aus dem Sack lassen); *tilt at windmills — 'to waste time trying to deal with enemies or problems that do no exist'* (Ispan tilidan: acometer molinos de viento);

O'zbek tili frazeologizmlari va ularning tasnifi

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarning turli jihatlarini o'rganish bo'yicha jiddiy yutuqlarga erishildi. Frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi[12;113]**.** Frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni va ularni grammatik planda va semantik planda o'rganishni o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib Sh.Rahmatullaev boshladi. Frazeologizmlarni va frazeologizmlarning grammatik tabiatini 1966 yilda himoya etgan doktorlik dissertatsiyasida va "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida juda yorqin yoritib berdi. Muhimi, bu asarda frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida o'rganilishi zarur ekanligi asoslab berildi va monografiyada o'z aksini topgan fikr-mulohazalar, xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik, stilistik jihatlardan o'rganishga imkon yaratdi[28;28].

Tilshunosligimizda frazeologizmlarni grammatik-semantik tadqiqini A.Rafiev,A.Mamatov va Q.Hakimovlarning ilmiy izlanishlarida ko'rish mumkin.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni stilistik planda o'rganish ham yo'lga qo'yildi. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarining uslubiy xususiyatlari ko'pgina nomzodlik dissertatsiyalari uchun mavzu bo'ldi[12;16-24]. Ammo ko'pgina shoir yozuvchilar asarlari frazeologizmlarni uslubiy jihatdan alohida mavzu sifatida emas, balki yo'l-yo'lakay yoritildi. Bu o'zbek badiiy sa'natkorlarining frazeologizmlardan foydalanish mahorati va ularning uslubiy xususiyatlari to'liq ilmiy yoritildi, degan gap emas[28;29].

Ammo, o’zbek tilshunosligida frazeologizmlarni uslubiy o’rganishda B.Yo’ldashevning doktorlik dissertatsiyasi katta qadam bo’ldi. Chunki ushbu ishda ilk bor frazeologizmlar ilk bor funksional-uslubiy jihatdan sistem holatida o’rganilgan va ularning nutq jarayonidagi uzual va okkazional vazifalari, badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlari kabi masalalar boy til materiallari asosida chuqur taqiq etilgan[28;29].

O’zbek tilshunosligida frazeologiya sistem ravishda to’la o’rganib chiqilgan deya olmasak ham, bu sohada yaratilgan qator ilmiy ishlar turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o’ynadi.

Hamma tilshunosligida bo’lgani kabi, o’zbek tilshunosligida ham frazeologiyani keng va tor tushunish davom etmoqda. Masalan, prof.Sh Rahmatullaev frazeologiyani tor ma’noda tushunuvchilar qatorida turadi. Olimning fikricha, frazeologik obyekt ikki yoki undan ortiq leksik yoki undan ortiq leksik negizdan tashkil topgan, tuzilishi jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan so’zga muqobil, yaxlitligicha ustma ko’chma ma’no anglatadigan luga’viy birliklardan iborat [34;56].

B.Yo’ldashev o’zining doktorlik dissertatsiyasida frazeologiyani keng ma’noda tushunuvchilar tarafdori bo’lib chiqadi. Muallif umumlashgan ma’no anglatuvchi, komponentlari qisman yoki to’lasincha ko’chma ma’no ifodolovchi turg’un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklardir-, deb hisoblaydi[21;10]. Tilshunosligimizda keyingi yillarda yuzaga kelga qator ishlarda frazeologiya obektini tor ma’noda tushunish an’anasi mavjudligi ko’zga tashlanadi[28;18].

Ammo prof. A. Mamatov o’zining doktorlik ishida frazeologiyani na “keng”, na “tor” doirada tushunish kerak, balki frazeologiya bahsida frazeologizmlarni, ularni turli xususiyatlarini o’rganish zarurligini aytadi. Va farzeologiya tarkibida o’rganilayotgan maqol, matal, aforizm, hikmatli so’z, topishmoqlar alohida o’rganishni talab etadigan o’ziga mos mavzular ekanligini, ammo tilshunosligimizda yaratilgan ayrim ishlarda frazeologiya poyonsiz yoki aksincha ayrim frazeologizmlar birikma terminlar qatoridan o’rin olib

qolganligini aytib o’tgan. Bunday noaniqlikni sababi “frazeologik birlik” tushunchasining mohiyati aniq belgilanmaganligidadir- deb hisoblaydi[28;20].

Frazeologizmlarni boshqa til birliklaridan farqlovchi belgilar yig’indisi va bu belgilarni belgilashda turli xil qarashlar mavjud. Hozirgi bosqichda alohida rasmiylashgan, tarkibning barqarorligi, yahlitligicha qo’llanadigan, tayyor holda mavjudlilik, obrazlilik, semantik qayta shakllanish kabilar frazeologizmlarning belgilari sifatida ko’rsatiladi[28;20]**.**

Ammo olimning fikricha, bu belgilarning barchasi frazeologizmlarga xos va shu bilan birga bu belgilarning ko’pchiligi turg’un bog’lanma, erkin bog’lanma kabi birikmalarga ham xosligini uqtiradi. Demak, bu belgilar ichidan frazeologizmlarga xos yetakchi bo’lganlarini aniqlab olish kerak-, deydi. Va quyidagi jadvalda ko’rsatadi:

Bog’lanma turlari	Alohida rasmiy lashgan	Tarkibning barqaror-ligi	Yahlitligicha qo’llanish	Tayyor holda mavjud-lik	Obrazli lik	Semantik qayta shakil lanish
Erkin bog’lanma	+	-	-	-	-	-
Turg’un bog’lanma	1	1	1	+	-	-
Frazeologizm	+	+	+	+	+	+

Jadvaldan ko’rinadiki, obrazlilik va semantik qayta shakllanish bu belgilar ichida yetakchi belgilar bo’lib chiqdi. Zero,”Frazeologik birlik bo’lish uchun so’zlarning turg’un birlashmasi obrazli ma’no, ko’chma ma’no anglatishi shart”- degan edi Sh. Rahmatullaev o’z asarlaridan birida[33;3]**.** Va bu fikrni davom ettirgan holda olim, Mamatov.A frazeologizmlar alohida rasmiylashgan, obrazli va ko’chma ma’no ifodaylaydigan til birliklari ekanligini va bu umumiy ta’rif ekanligini aytadi. Uni frazeologizmlar semantik, struktural, funksional belgilarga ham ega ekanligini inobatga olgan holda, frazeologizmlarning turli

xususiyatlarini o’rganish davomida aniqlashtirish, konkretlashtirish mumkin[28;21].

Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologizmlarni, ular anglatgan yahlit ma’no bilan ular tarkibidagi leksemalar ifodalaydigan ma’nolar orasidagi munosabat asosida frazeologik butunlik, frazeologik qo’shilma, frazeologik chatishma kabi turlarga ajratadi va bunday leksik-semantik tasnif qator tillarga tadbiq etilishi bilan bir qatorda, o’zbek tilshunosligini ham bunday tasnifdan chetda qolmadi. Chunonchi, frazeologizmlarni o’rganishga bag’ishlangan ishlarda bu lug’aviy birliklar uch guruhga ajratilgan bo’lsa, boshqa ishlarda ikkiga bo’linadi[28;23]. Jumladan, **frazeologik qo’shilmaga** ”ma’no sostavidagi so’zlarning(komponentlarning) bosh yoki yasama ma’nolaridan iborat bo’lgan turg’un iboralar frazeologik qo’shilma deyiladi” – deb ta’rif berilib, “qo’l ko’tarmoq”, “o’qqa tutmoq”, “to’pga tutmoq” “ishtahasi ochildi” kabi misollar keltiriladi**. Frazeologik birlashmaga** ”sostavidagi so’zlarning ma’nolaridan kelib chiqadigan asl, real ma’nodan tashqari, butub holda ko’chma ma’noda qo’llanadigan turg’un iboralar kiritilib “ hamir uchidan patir”, “misi chiqdi”, “loy bo’lmoq”, “tuyog’ini shiqillatmoq” kabi misollar qayd etiladi. **Frazeologik chatishma** esa ”sostavidagi so’zlarning ham o’zaro, ham umuiy ma’noga nisbatan bo’lgan ma’no munosabatlari unitilgan turg’un iboralardir deb ta’riflanib, “taqdirga tan bermoq”, “dimog’i chog’ bo’ldi”, “toqati toq bo’ldi’, “juftakni roslamoq”, “pixini yorgan” kabilar misol sifatida keltiriladi [32;45-47].

Ammo, tilshunos A.Hojiev keyingi ishlarining birida esa frazeologizmlarning har ikkala leksik-sematik tasnifini inkor etadi va ularni guruhlashtirish ma’qul emasligini uqtiradi**.[**18;142**].**

Rus tilshunoslari frazeologik obyekt haqida turli xil belgilarni asos qilib olganliklarini hisobga olgan holda, yuqorida keltirilgan leksik-semantik tasnifga asoslanadigan bo’lsak, frazeologik obekt kengayib ketadi va “Bunday turli xillikni asosiy sababi, frazeologizmlarning semantik tasnifi chuqur asoslanmaganligidadir”- deb, hisoblaydi olim Mamatov. A.

Frazeologioya sohasidagi olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida, ularning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiati va stilistik xususiyatlari u yoki bu tarzda ochib berilgan bo'lsa, endilikda ayrim tilshunoslarning frazeologiya sohasida olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari frazeologik shakllanish masalalariga bag'ishlanayotganligini ko'rish mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlarini o'zbek tilshunosligida ilk bora sistem tadqiq etishga bag'ishlangan monografik ish olim A.Mamatovning doktorlik ishidir. Olim o'z ishida frazeologizmlar stuktural, semantik, funksional-uslubiy jihatli murakkab hodisa bo'lganligi uchun u o'ziga xos shakllanish qonuniyatlarga ega ekanligini uqtiradi va frazeologik shakllanishni quyidagicha ta'riflaydi: "Frazeologik shakllanish til elementlarining, xususan ikkii yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro uyushib, yangi til birligini yuzaga keltirishgacha bo'lgan jarayondir"[28;32]**.**
Frazeologik shakllanishning vosita va usullarini u quyidagi sxemada tasvirlaydi:



Shunday qilib, olim o'zbek tili frazeologizmlari to'rt derivatsion asos va uchta frazeologik shakllanish jarayonida shakllanishini tasvirlaydi.

Bundan tashqari u o'zbek frazeologizmlarining shakllanish asoslarini quyidagicha tasniflaydi:

1.Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatdan shakllanadigan frazeologizmlar: *abjag'ini chiqarmoq, asabiga tegmoq, vasvasaga tushmoq,vahimaga tushmoq, jig'iga tegmoq, achchig'i keldi, javasi tutdi va b.lar;*

2. O'zbek xalq turmushi voqealigi asosida shakllangan frazeologizmlar:

- **Uy-ro'zg'or buyumlari asosida shakllangan frazeologizmlar:** *po'stagini qoqmoq,sovuniga kir yuvmaslik, yumshoq supurgi bo'lmoq, chirog'ini yoqib o'tirmoq va b.lar;*
- **Pazandachilikka bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar:** *zuvalasi pishiq, qozon osmoq, maslahat oshi qilmoq, tayyor oshga qoshiq solmoq va b.lar;*
- **Tibbiyotga bog''liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar:***dardiga darmon bo'lmoq, dardiga darmon topmoq, asablari tarang, bezgak tutgandek,illati bor, dardi ko'p va b.lar;*
- **Dehqonchilikka bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar:** *yer haydamoq, ildiziga bolta urmoq, shoxini sindirmoq, qovun tushirmoq;*
- **Chorvachilikka bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar:***jilov-ni bo'sh qo'ymoq, jilovni qo'lga olmoq, zog' uchmaydi, dumi hurjunda;*
- **Kasb-korga bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar:***kiyib tashlamoq, yeng uchida, kashtasi kelishgan,mum tishlamoq, bo'zchining mokisiday va b.lar;*
- **Maktab-maorifga bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar:** *dars bo'lmoq, savodi chiqdi, qofiyasi kelganda,alifni tayoq deyaolmaslik va b.lar;*
- **Musiqachilikka bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar:** *nog'arasiga o'ynamoq, do'mbira chertib yurmoq, to'ydan oldin nog'ara qoqmoq va b.lar;*

3. Hayvonlar obrazi asosida shakllangan frazeologizmlar: *buzoqning yugurgani somonxonagacha, qo'y og'zidan cho'p olmagan, tulkiday ayyor;*

4. Diniy tushunchalar bilan bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar: *avvali xudo, xudo olsin, gunohga botmoq, tarki dunyo qilmoq va b.lar;*

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida, frazeologizmlarni fikrni keng, obrazli, o'tkir ma'noli ifodalashi bilan boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi yetakchi xususiyatlari ekanligini bilib oldik. Demak, bu birliklar nutq jarayonida ko'proq ishlatiladi va nutqimizga yanada jonlilik kiritadi. Shunga ko'ra o'zbek tilshunosligida "O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan. Va ilmiy izlanishda olim Bozorboev.K so'zlashuv nutqi frazeologizmlarini grammatik va semantik jihatdan tasniflaydi. Quyidagi sxemada so'zlashuv nutqi frazeologizmlarining grammatik tasnifini tasvirlaymiz[13;35]:



1-sxema. So'zlashuv nutqi frazeologizmlarini grammatik ifodalanishiga ko'ra tasnif

Yuqoridagi sxemaga ko'ra biz o'zbek tili frazeologizmlari grammatik jihatdan asosan uchta mustaqil so'zlar turkumidan ya'ni ot, sifat, ravishdan tashkil topishi va boshqa kategoriyadagi so'zlar ham o'zbek tili frazeologizmlarini grammatik jihatdan shakllanishida asosiy grammatik tayanch komponent bo'ladi degan umumiy xulosaga keldik. Va olim: "Xullas,

frazeologizmlarni grammatik turkumlarga tasniflashimizda obyektiv xulosalarga ega bo'lishni istasak, mazmun va shakl orasidagi izmorofik darajani hisobga olishimiz va birinchi galda ulardagi grammatik tayanch komponentga, ular anglatgan ma'noga asoslanishimiz lozim,"-deydi.(Bozarbaev.K 2001: 104)

Endi **2-sxemamizda biz yana olimning frazeologizmlarning tuzilishiga ko'ra tasnifini** tasvirlaymiz:



Demak, 2-sxemadan biz so'zlashuv nutqi frazeologizmlari ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topishi mumkin deb xulosa qilmiz. Olim o'z ilmiy tadqiqotida, ikki komponentdan tashkil topgan frazeologizmlar asosan mustaqil so'zlarning har xil tuslanishi va turlanishi natijasida natijasida bir-biri bilan birikib ketishini, uch kopmponentdan tashkil topgan frazeologizmlarni esa hosil qilishning yo'llari ham, bunday frazeologizmlarning turlari ham har xilligini ta'kidlaydi[13;107-109].

Mazkur magistrlik dissertatsiyamiz ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlarini ochib berishga bag'ishlanganligi uchun biz, frazeologizmlarning struktural, grammatik va shakllanishiga ko'ra tasniflarini qisqacha yoritib o'tdik. Endi K.Bozorboevning ilmiy tadqiqoti asosida biz frazeologizmlarning semantikasiga ko'ra tasnifini ko'rib chiqamiz.

A.Abdullaev ta'kidlaganidek "frazeologizmlar nominativ va qo'shimcha ottenkalarning ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy figuralardir"[6;39]. Shu jihatdan olim K.Bozorboev frazeologizmlarni ikki guruhga ajratadi:

1. **O'zining emotsional ekspressiv bo'yoqdorligi bilan ajralib turadigan frazeologizmlar.**
2. **Emotsional-ekspressivga ega bo'lmagan frazeologizmlar.**

Olim birinchi guruh frazeologizmlar o'zining asosiy ma'nosini ifodalab qolmasdan balki nutqda so'zlovchining u yoki bu munosbatini ham ifodalashini izohlaydi va bu munosabat nutqqa kinoyalik, hazil, zaharxandalik, dag'allik, shodlik, g'azab, nafrat, o'kinch, qo'rquv, jirkanish kabi emotsionallikni bag'ishlaydi deb uqtiradi. Bu turkum frazeologizmlarga: *Ikkovi quyuq ko'rishishdi. Baxayr, biz tomonlarga seni qaysi shamol uchirdi* (S.Ahmad. Hukum,169). *To'paniso o'zi haqidagi maqtovga kelganda, og'zining tanobi qochib: "Men nima qilibman? Menda nima gap?..Hech-da".-dedi* (A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari,151) – kabi ko'plab misollarni keltirish mumkin. Ikkinchi guruh frazeologizmlar asosan nominativ vazifani ifodalashga hizmat qiladilar va shu sababdan ular emotsional-ekspressivlikka ega bo'lmaydi. Demak, baho ottenkasi va obrazlilik xususiyatlariga ega bo'lmagan: *ovoz bermoq, ovozga qo'ymoq, qo'l ko'tarmoq, qo'l qo'ymoq*- kabi ko'plab frazeologik misollarni keltirish mumkin.

Professor A.P.Hojiev shunday yozadi: " Frazeologizmlar o'z sinonimlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, birinchidan ma'noni kuchli darajada ifodalasa, ikkinchidan ular obrazlilik ottenkasiga ega"(142:139). Anashu fikr

mulohazalarga asoslangan holda olim K.Bozorboev so’zlashuv uslubidagi frazeologizmlarni konnotativ va polisemantik ma’nolarga ko’ra ham tasniflaydi:

1. **Baholash munosabatini ifodalovchi frazeologizmlar**
2. **Polisemantiklikni ifodalovchi frazeologizmlar**

Har bir frazeologizm biror predmet yoki hodisaning nomini atash bilan birga ijobiy va salbiy ma’nolarni ham ifodalashini tushuntirgan holda ularni baholash munosabatiga asosan ikki guruhga ajratish mumkinligini ko’rsatadi:

3-sxema. K. Bozorboevning tasnifiga ko’ra ijobiy ma’no munosabatini ifodalovchi frazeologizmlar



So’zlashuv nutqi jonli, hayotiy va turmush nutqidir. Unda kishilarning kundalik turmushi, o’zaro munosabati va munosabat natijasida tug’iluvchi ijobiy munosabatar o’z ifodasini topadi. So’zlashuv nutqida so’zlovchining ruhiy olami, holati ham mujassamlashgan bo’ladi. Shu tufayli so’zlashuv nutqida kishilarning o’zaro ijobiy munosabati va ruhiy holatlarini ifodalovchi frazeologizmlar ko’p ishlatiladi[13;115].

Demak, baholash munosabatini ifodalovchi frazeologizmlarning ijobiy ma’no munosabatini ifodalovchi guruhlaridagi frazeologizmlar so’zlovchining nutqida shodlilik, baxlilik, xursandchilik, birlik, hamjihatlik, hamkorlik, sezgirlik, ziyraklik, bilimdonlik, badavlatlik, to’qlik, ko’p fikrlilik, idrok etish qobiliyati kabi ijobiy munosabatlar o’z aksini topadi.

4-sxema. K.Bozorboevning tasnifiga ko’ra salbiy ma’no munosabatini ifodalovchi frazeologizmlar



Demak, salbiy ma’noni ifodalovchi frazeologizmlar nutqda ayyorlik, quvlik, shumlik, dag’allik, kamsitish, kinoya, nafrat, so’kish, koyish, qarg’ish danggasalik, yalqovlik, lapashanglik, shoshilish, hovliqish, to’palon, qattiq g’azablanish kabi ko’plab salbiy ma’no munosabatlarini ifodalaydi va bu turdagi frazeologizmlar jamiyatdagi zolim, johil kishilarning xarakterini ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, baholov ma’nosini ifodalovchi ijobiy va salbiy munosabatni bildiruvchi frazeologizmlar so’zlashuv nutqining umumiy uslubiy maqsad va yo’nalishi bilan aloqadordir. Bunday xususiyatga ega bo’lgan frazeologizmlar

so’zlashuv nutqi uslubida ko’proq qo’llaniladi. Individual til va obraz yaratishda so’zlashuv uslubiga xos bu xususiyatlardan badiiy asarlarda ham foydalanadilar[13;120]**.**

Birinchi bob bo’yicha umumiy xulosa

Ingliz va o’zbek tilllarigadi frazeologizmlar haqidagi umumiy nazariy qarashlar asosida, frazeologizmlarni boshqa til birliklaridan farqlovchi belgilar yig’indisi va ular orasidagi yetakchi belgilar to’g’risida har ikkala tildagi tilshunoslar tomonidan aniq to’xtamga kelinmaganlikini bahs etishimiz mumkin. Balki bunga, ushbu belgilarni belgilashda turli xil qarashlar mavjudligi va ularning har biri turli me’zonlar asosida tushuntirilganligi sababchi bulgan degan xulosaga kelish mumkin. Umumiy qilib aytganda, ingliz tili tilshunosligida ham, o’zbekshunoslikda ham frazeologizmlarni tasnif qilganda tilshunoslar “keng“ va “tor” ma’noda tushunchalarga asoslangan va shunga ko’ra har ikkala tilda ham frazeologizmlar ikkita katta guruhga ya’ni bir so’zga teng va bir gapga teng birliklarga ajratilib tadqiq etilgan. Bir tamondan, bu birliklar sintaksis va semantikada autonom, ya’ni faqatgina bir so’z bilan alamshtirib bo’ladigan bo’lsa, boshqa tomondan esa gapning boshqa elementlarini talab etadigan va bir gap bilan almashtirib bo’ladiga birlik sifatida tasnif etilgan. Ya’na bir muhim ahamiyat kasb etadigan xususiyati shundaki, xususan yaqin yillarda olib borilgan tadqiqotlarda bu birliklarni ko’proq nutq jarayonidagi uzual va okkazional, badiiy matndagi pragmatik xususiyatlari, muhim ahamiyat kasb etishi haqida so’z yuritilmoqda. Ammo, tilshunoslikdagi bir xil kategoriyadagi birliklarga ko’p vaqtlardan beri turli xil belgilarga tayanilgan xolda turli xil izohlar va nomlar berilgan va shunisi munozaraliki, haligacha frazeologizmlarni boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi belgilari haqida bahs munozaralar davom etmoqda va bu til birliklarini ya’nada chuqurroq o’rganish bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIKASI

2.1.Ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologizmlarning leksik -semantik xususiyatlarini taqqoslash.

Til boyligini egallash va undan samarali foydalanish uchun so’z ma’nosi va xususiyatini mukammal anglab yetish zarurdir. So’z boyligini oshirishda esa turg’un birikmalar, frazeologik birliklarning ahamiyati kattadir.

Ma’lumki,frazeologik birliklar deganda tilda tayyor holda uchraydigan, nutqda shundayligicha ishlatiladigan, shaklan so’z birikmasi va gapga o’xshaydigan, mazmuni ko’chma ma’noga asoslangan til birliklarini yoki lug’aviy birliklarni tushunamiz.

Frazeologik birliklar tilda muhim o’rin egallashiga sabab biror tilni lug’aviy boyligini oshirishda nafaqat so’z balki shu qatlam ham katta ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarni nutqqa tayyor holda olib kirilishi ularni til hodisasi sifatida e’tirof etishimizni taqazo etadi. Bu soha juda murakkab va rang barang lingivistik jarayon bo’lib frazeologik birliklarning paydo bo’lishidan tortib to hozirgi davrda ushbu sohada bo’layotgan o’zgarishlar, rivojlanishlar, shu soha bo’yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlardan ko’proq boxabar bo’lishimiz va o’z bilim doiramizni yanada kengaytirish va frazeologiya bo’yicha yanada keng qamrovda tushunchalarga ega bo’lishimiz zarurligidan dalolat beradi. Mazkur soha o’zini qiziqarliligi va o’ta jiddiy til hodisasi ekanligi bilan qadimdan ko’pgina tilshunoslarni va shuningdek hozirgi kunning yosh olimlarini ham e’tiborini tortib kelmoqda. Masalan mashxur tilshunos F.de Sossyur o’zining “Umumiy tilshunoslik kursi” asarida tilda “..shunday tayyor birikmalar borki, ularning uzual xarakteri ma’nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi..... bunday birikmalar tayyor holda , an’anaga ko’ra qo’llaniladi” [37;157]degan edi. Har bir tilning boy lingvistik imkoniyatlarini ko’rsatuvchi vositalaridan biri bu frzazeologizmlar ekan bu sohada ko’pgina rus olimlari akademik V.V.Vinogradov, A.I. Smirnitsky, H.N.Amosovalar bilan bir qatorda o’zbek olimlari ham o’zlarining ko’p ilmiy ishlarini olib borganlar. Masalan Sh.Rahmatullayev asos solgan o’zbek frazeologizmshunosligi keyingi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Turli hajmdagi ilmiy maqolalar, risolalar, nomzodlik

dissertasiyalari bilan bir qatorda A.E.Mamatovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari» (1991), B.Yo'ldoshevning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari»(1994), A.Mamatovning «O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari» (2000) nomli doktorlik ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Sh.Rahmatullayev tomonidan 1978 yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» esa hozirgacha muhim qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Frazeologiya sohasi hozirgi kunga kelib ancha keng qamrovda tushunilmoqda, ya'ni nafaqat turg'un so'z birliklar balki maqol va matallar, naql va latifalar ham shu sohaga oid deb qaralmoqda.Xalqning rasm- rusumlari, urf – odatlari, turmush qiyinchiliklari, mehnat –majburiyatlari, xursandchiliklari, hayot tarzi ushbu birliklarda o'z aksini topadi va tabiiyki bir tildan ikkinchi bir tilga bu birliklarni tarjima qilishda ancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillari tarixan ikki xil oilaga mansubdir va bu ikki tilning turli xil madaniyat va urf- odatlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Va ingliz tilidagi mavjud frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishda va muqobil variantini topishda ayrim muammolar keltirib chiqaradi. Masalan; **Over the moon** idiomasi so'zma –so'z tarjima qilinsa **oydan baland bo'lmoq** degan ma'noni beradi lekin uni o'zbek tilidagi muqobil varianti **boshi osmonga yetmoq, boshi ko'kga yetmoq** degan ma'noga mos tushadi. Keltirilgan misolda frazeologik birlikni o'zak komponentlari ma'nosidan anglashib bo'lmaydi va bu ko'chma ma'noda ishlatiladi. Boshqa misolni kuzatsak: **Break smb's heart**, bu birlik o'zbek **tilidagi "Qalbi sinmoq, xafa bo'lmoq"** degan muqobil variantlarga egadir.

Ba'zan turlicha oilaga mansub bo'lgan turli tillarda shaklan turlicha bo'lsada obrazli asoslari o'xshash mazmun jihatdan bir biriga yaqin frazeologik birliklar uchrashi qadim zamonlardan xalqlar o'rtasida davom etib kelayotgan do'stlik va qardoshlik aloqalaridan darak beradi. Masalan: **To be on the high horse** – ingliz tilida **baland otda bo'lmoq** deb tushunilsa, o'zbekchada esa

burni ko'tarilmoq degan ekvivalentga mos tushadi. Bular ikkala tilda turlicha jaranglasada bar'bir, mazmunan **man-mansirab ketmoq** degan ma'noni anglatadi. Yoki **to be two faced** birikmasi inglizchadan so'zma so'z **ikki yuzli bo'lmoq** deb tarjima qilinadi va o'zbek tilidagi **ikki yuzlamachi** degan ekvivalentigaegadir.G'aybulla Salomovning ta'kidlashicha,"qardoshlik, territoriya yoki etnik jihatdan bir-biridan uzoq bo'lgan xalqlarning tillarida o'xshash ko'chma ma'noli birikmalarning uchrash sabablari bir qanchadir". Shuning uchun ham turli xalqlar tillarida shaklan turlicha bo'lsada, obrazli-asoslari o'xshash, mazmunan bir-biriga yaqin frazeologizmlar uchraydi.

Shuningdek umuman boshqa boshqa til gruppalariga ega bo'lgan ingliz va o'zbek tillarida – geografik joylashuvi, ijtimoiy taraqqiyoti, milliy an'ana va urf odatlarini turlicha ekanligini hisobga olgan holda,forma jihatdan ozgina farq qiladigan lekin mazmunan o'xshash frazeologizmlar ham uchrab turadi. Masalan: **to do smth like a bird** inglizchadan so'zma so'z **qush kabi (like a bird) jon jahdi bilan ishlamoq**, o'zbekchada esa bu frazeologik chatishmada **qush** obrazini o'rniga, **chumoli** so'zi ishlatilsa muqobil ekvivalent bo'la oladi. Chunki bu birlik **jon jahdi bilan mehnat qilmoq** degan ma'noni beradi. Demak, ingliz xalqlarida mehnatkash hayvon deb **qush** sanalsa , o'zbek xalqida mehnatkash hashorat obrazida chumoli gavdalanadi. Xullas, bu birlik forma jihatdan ozgina farq qilsada mazmunan o'xshash ma'nonalrni ifodalayapti. Yoki boshqa bir misolni kuzatsak, **shake your ears** , ingliz tili da **ears – quloq,** o'zbek tilida esa **quloq** o'rniga **tuyoq** so'zi ishlatiladi. Ya'ni **Bor, tuyog'ingni shiqillat** deb tarjima qilinadi . Ingliz tilidan so'zma so'z tarjima qilsak bu **Bor, quloqlaringni qimirlat** deb tarjima qilingan bo'lardi. Yoki yana bir boshqa misolga qarasak **to be on thin ice** turg'un so'z birikmasi har ikkila tilda ham **qiyin ahvolda , vaziyatda bo'lmoq** degan mazmunni beradi, lekin ingliz tilida qiyin vaziyat **thin ice** – ya'ni **nozik muz** so'zi bilan ifodalansa o'zbek tilida esa **qil** so'zi bilan namoyon buladi. Ya'ni **qil ustida turmoq** degan variantga mos tushadi. Demak ,o'zbek xalqlarida qiyin vaziyat nozik qilga qiyoslansa, ingliz xalqlarida esa nozik muz obrazida tasvirlanar ekan.

Xulosa qilib shuni aytib o’tamizki, u qaysi tilda bo’lishidan qa’tiy nazar , biror asarni katta hajmdagimi yoki kichik, nasrdami yoki nazmda buni farqi yo’q, uni o’z ma’nosi va tasirchanligini saqlab qolgan tarzda tarjima qilish juda katta ahamiyatga ega. Demak ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilishda frazeologik birliklar to’gridan to’g’ri tarjima qilmay eng munosib variantlarini tanlab olish zarurdir.

2.2.Ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologik sinonimlar va ularning leksik-semantik xususiyatlarining muqoyasasi.

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo’lib, ingliz va o’zbek tillaridagi iboralar orasida ham anchagina. Frazeologik sinonimiya hodisasi turli tillar, jumladan rus, nemis, ingliz, o’zbek , ozarbayjon, turk, boshqird va boshqa tillar tadqiqotchilari tomonidan ham keng o’rganilgan.

Tilshunoslar frazeologizmlarda sinonimik belgilarni turlicha mezonlarda e’tirof etganlar. Masalan, M.M.Kopilenko va Z.D.Popova frazeologik sinonimiyani tarkibidagi leksemalarga ko’ra farqlanuvchi, ma’no jihatdan yaqin bo’lgan, lekin bir yoki bir necha semantik belgilarga ko’ra farqlanuvchi turg’un iboralar sifatida talqin etadilar**[**22;124].

A.I.Molotkov frazeologik sinonimlarning o’ziga xos 4 xususiyatini ajratib ko’rsatgan edi: ma’nolarning bir xilligi, o’xshashligi, tarkibida bir xil komponentlarning bo’lmasligi,leksi-grammatik tomonidan o’xshashligi, komponenetlarning o’zaro bir-biri bilan almashtirish imkoniyatining yo’qligi[31;165-166].

Akademik N.M. Shanskiy esa frazeologik sinonimiya haqida quyidagi ta’rifni keltiradi:“Obektiv borliqdagi aynan bir xil predmetni anglatuvchi turli iboralar sinonomik frazeologizmlar deb ataladi”[38;124]. O’zbek tilidagi frazeologik birliklar sinonimiyasi prof. Sh.U.Rahmatullaev tomonidan ma’lum darajada o’rganilgan. Uning “O’zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida ham fazeologik sinonimiya masalasi o’z aksini topgan. Olim shuni takidlaydiki**,** “Frazeologik sinonimiya uchun umumiy va eng muhim

me’zon – bu semantik mezondir. Har bir sinonimik uyadagi (sinonimik qatordagi- B.Y.) frazeologik birliklar obektiv borliqdagi bir xil tushunchalarni anglatishi kerak va shu bilan birgalikda, bir xil ma’noni anglatishi shart”[34;264].

Mashxur rus tilshunosi Kunin frazeologik sinonimlarni stilistik va semantik elementlariga ko’ra 3 turga bo’lib ko’rsatadi:

1.**Idiografik sinonimlar**

2.**Stilistik sinonimlar**

3.**Stilistik –idografik sinonimlar.**

Ma‘nodoshlik hodisasi ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologizmlarda ham amal qiladi. Frazeologizmlarning ma‘nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko’ra farqlanadi: yaxshi ko’rmoq-ko’ngil bermoq, yer bilan yakson qilmoq-kulini ko’kka sovurmoq, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug’igacha va h. Ma‘nodosh frazeologizmlarning atash semalari bir xil bo’ladi. Masalan, ipidan ignasiga-miridan sirigacha, qilidan quyrug’igacha kabi iboralarida «butun tafsilotlari bilan» atash semasi umumiydir. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo’yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo’ladi, shulardan yana biri ma’no qirrasidagi farq bo’lishi mumkin. Sinonim iboralar bir –biri bilan “ma’no nozikligi, uslubiy bo’yog’i yoki bir vaqtda ikkalasiga ko’ra fraqlanadi”[19;67].

Masalan, *Jo’ra uyiga* ***sevinchi ichiga sig’may*** *kirib keldi.(N.Nazarov”Zamon”)*

Alohida kommisiyadan ham o’tib, akademiyaga putyovka ham oldim, ***quvonchim olamga sig’maydi*** *(G’.G’ulom “Yodgor”)*

Yuqorida keltirilgan parchalardagi ***sevinchi ichiga sig’may*** iborasi ***quvonchim olamga sig’maydi*** iborasiga sinonim : ayni bir ma’noni anglatadi. **(“xursandchiligi oshib-toshib ketdi”).** Ammo bu sinonimlar, boshqa belgi xususiyatlaridan qa’tiy nazar, ma’no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma’no

birinchisiga qaraganda bir qadar kuchli.Ya'ni birinchisida **ich** obrazi olingan bo'lsa, ikkinchisida **olam** obrazi keltirilgan.

Xuddi shunga o'xshash xodisa, ya'ni frazeologik sinonimiyalardagi ma'no qirrasidagi farq ingliz tilidagi frazeologik sinonimlarda ham uchraydi. Masalan, semantik jihatdan **quvonch olamga sig'maslik** yoki ***sevinchi ichiga sig'maslik*** iboralarining ingliz tilidagi ekvivalenti sifatida quyidagi misollarni keltirsak:

Who is this young woman who goes out stealthily like this, and meets a young man, and comes back feeling as if she ***had been treading on air?*** *(J. Galsworthy)*

The execution of this arrangement so thrilled Tollifer that he felt as though he ***were walking on air.*** *(Th. Dreiser)*

They motored up, taking Michael Mont, who, ***being in his seventh heaven,*** *was found by Winifred very amusing. (J. Galsworthy)*

Keltirilgan parchalardagi ***to tread on air (clouds)- to walk on air*** iboralarining sinonimi ***to be in the seventh heaven*** idiomasidir. Bu iboralardagi farq ham biri ikkinchiga qaraganda kuchliroq ma'no qirrasiga egaligidadir. Lekin ular ham aynan bir ma'noni ya'ni **"juda xursand bo'lish "**ni anglatadi. Va shu xususiyatiga ko'ra ular bir biri bilan o'zbek va ingliz tillaridagi ekivivalent sinonim iborlar sifatida ishlatiladi. Lekin o'zbek tilidagi ekvivalentlarida **"ich"** va **"olam"** obrazi bilan keltirilgan bo'lsa, ingliz tilidagi ekvivalentlarida esa **"osmon"** obrazi bilan ifodalangan.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, quyida berilgan asarlardan parchalardagi ***bir(or) o'g'iz, bir chimdim, bir shingil*** iboralari bir biri bilan o'zaro sinonimlardir ya'ni hammasi **"jindak, qittak, juda oz"** degan ma'noni anglatadi lekin asosida xar xil obrazlar yotibdi: **so'zlash organi**, **bir bosh uzumning qismi** va **chimdib olinadigan miqdor.**

Haligacha Saodat bilan betma-bet uchrashib,...bir-birimizga uylanish to'g'risida ***biror og'iz*** *suxbatimiz bo'lgan emas. (G'G'ulom "Yodgor").*

Hazil-huzul, ***bir chimdim*** *suhbatdan so'ng Mirhaydar Va O'ktam paxta dalasiga yo'l oldilar.(Oybek " Oltin vodiydan shabadalar'')*.

Payti kelganda, doktorlardan, professorlardan ham ***birshingil-yarimshingil*** *maslahat oldim. .(Oybek " Oltin vodiydan shabadalar'').*

Endi ingliz tilidagi **"jindak, qittak, oz"** ma'nosini beruvchi iborasiga e'tibor bersak: "**a little bit".** Bu ibora aynan **"jindak, qittak, oz"** ma'nosini beruvchi so'z **"little"** so'zi bilan ifodalangan. Demak, o'zbek tilida**"jindak, qittak, oz"** ma'nolarnini beruvchi ***bir(or) o'g'iz, bir chimdim, bir shingil*** iboralari asosida boshqa boshqa obrazlar yotgan bo'lsa, ingliz tilida aynan shu ma'noni berish uchun faqat **a little bit** iborasi ishlatiladi.

Ammo ingliz tilidagi sinonim iboralar asosida xar hil obrazlar yotib, lekin aynan bir ma'noni beruvchi holat kuzatilmaydi deyolmaymiz. Masalan: **(as) soft as a baby's bottom, (as) soft as down** yoki **(as) soft as velvet** kabi iboralar ham o'zaro sinonim iboralar bo'lib, ular ham aynan bir, ya'ni **" juda yumshoq"** degan ma'noni bildiradi. Lekin ular ham har xil obrazlar asosida ifodalangan: **chaqaloqning ta'na azosi, qush pati** va **mato turi.** Quyida misollar keltirsak:

This cloth is **as soft as a baby's bottom.**

The baby's skin is **soft as down**.

The horse's nose felt **as soft as velvet.**

Sinonim iboralar haqida so'z borar ekan, ularni frazeologik variantdoshlikdan farqi haqida to'xtalish lozim. Ya'ni sinonim iboralarni variantdosh iboradan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga e'toborimizni qaratish lozim. Leksik tarkibida aynan bir so'z – komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekanligi shubhasizdir.

Ba'zan sinonim iboralar leksik tarkibida biror so'z komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, **"juda band bo'lmoq, bo'sh vaqt(i) bo'lmaslik"** ma'nosini beruvchi **qo'l tegmadi , qo'l(i)**

tegsa iboralari o’zaro variantdosh iboralardir. Bunda bir so’z komponenti ayni bir so’z bilan **(qo’l – qo’l(i))**, ikkinchi leksik komponenti esa o’zaro sinonim so’zlar bilan ifodalangan **(tegmadi–tegsa)** va o’zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik komponenti o’zaro sinonim so’zlar bilan ifodalansa **(tegmadi- tegsa)** , boshqa bir leksik komponentlari esa aynan bir so’z bilan ifodalangan.

Endi ingliz tilidagi:**”juda band bo’lmoq**” ma’nosini beruvchi iboralarga e’tiborimizni qaratsak:“**as busy as a cat on a hot tin roof”**, “**as busy as a one-armed paperhanger”** va “**as busy as Grand Central Station”**, bu yerda ham bir so’z komponenti aynan bir so’z bilan **(“as busy as’)** ifodalangan, lekin yuqoridagi o’zbek tilidagi iboralardan farqli o’laroq, ikkinchi leksik komponent o’zaro sinonim bo’lmagan boshqa-boshqa so’zlar bilan ifodalangan.

Demak, bular o’zaro sinonim iboralar sifatida birini o’rnida ikkinchisi qo’llanishi mumkin. Bularni o’zaro variandosh iborlar sifatida qayd etolmaymiz, chunki ikkinchi leksik komponent har xil obrazlarda ya’ni o’zaro sinonim bo’lmagan so’zlarda ifodalangan.(**a cat on a hot tin roof, one-armed paperhanger, Grand Central Station**).

Tilshunos B.Yo’ldashev frazeologik sinonimlarni frazeologik variantlardan farqlashning quyidagi belgilarini ko’rsatadi:

1.Frazema ichki formasining yahlitligi.Masalan, “ko’ngil va yurak so’zlarining almashinuvi asosida hosil bo’lgan quyidagi variantdosh iboralar ichki formasining yahlitligi bilan ajralib turadi: ko’ngli g’ash tortdi-yuragi g’ash tortdi, ko’ngliga quloq solmoq-yuragiga quloq solmoq, ko’nglida kiri yo’q-yuragida kiri yo’q kabi.

2.Bir iboraning variantlari ifodalaydigan ekspressiv- baxo bo’yog’i ko’pincha bir xil bo’ladi. Masalan, “bosh(i)ni og’ritmoq”, “bosh og’ritmoq” , “bosh qotirmoq” iboralari bir umumiy ekpressiv ottenkaga ega. Yoki “ Boshida danak chaqmoq”, “boshida danak chaqmoq”, “miyasida danak chaqmoq” “boshida yong’oq chaqildi” kabi variatdosh iboralar semantikasi “ortiq darajada” semasi bilan yahlitlikga egadir[21;69].

Xulosa qilib shuni aytamizki , sinonimya variantdoshlikka nisbatan ancha keng tushunchadir. Filologiya fanlari doktori B. Yo'ldoshev o'zining "Frazeologik uslubiyat asoslari" nomli qo'llanmasida "Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar o'zbek tilining kuchli tasviriy- uslubiy manbalaridan biridir. Shuning uchun izohli, frazeologik va boshqa tip lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham, frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim." degan fikrni keltiradi.

Ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik sinonimiya va frazeologik variantdoshlik o'rtasidagi farqni anglash lozim ekanligi fazeologik uslubiyatda, har ikkala tilda ham juda muhim ahmiyat kasb etadi.

2.3.Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarda antonimiya – lingvistik xodisa sifatida

Antonimya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan xodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darjada uchraydi. Antonimyani belgilash, bir tamondan iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglshga olib kelsa, ikkinchidan polisemyada bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchunchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi[34;7]**.** Shunga ko'ra frazeologik antonimyaga tilshunoslar lingvistik xodisa va sinxron planda kuzatiladigan til birliklarining ichki sistem munosabatlari ma'no aloqalarini tadqiqi etish aspektlaridan biri sifatida qaraydilar.

Frazeologik antonimya xodisasi qator tilshunoslarni e'tiborini tortgan lingistik xodisa sifatida e'tirof etilishi bejiz emas . O'zbekshunoslikda bo'lgani kabi, Rim tilshunosligida 1990 yillarning boshlarida E.N.Miller farzeologik antonimya xodisasini chuqur tahlil etish va frazeologik antonimlardan iborat bo'lgan lug'at yaratish zaruriyatini anglab yetgan bo'lsa, o'zbekshunoslikda professor Rahmatullaev Shavkatning fikrlarini davom ettirgan holda Umirova Lola o'zining "Hozirgi zamon ingliz tilida fe'l frazeologik paradigma" nomli nomzodlik dissertatsiyasida:"Frazeologik antonimlar tahlili ma'lum frazeologik birlikning strukturaviy-ma'noviy va stilistik xususiyatlarini ochib beradi. Antonimlik va frazeologizmlarni o'rganish frazeologik birliklarda variantilik va

sinonimlik munosabatlar mavjudligi kabi qator xodisalarni tushunishga yoradam beradi”-deb ta’kidlaydi va nomzodlik dissertatsiyasida tadqiq uchun ajratilgan 500 juftdan 350ga yaqin fe’l, 49-adverbial, 50-ade’ktiv, 51-substantiv farzeologik antonimlar borligini va frazeologik antonimlar ko’proq fe’l frazeologizmlar orasida uchrashini aytib o’tadi. Uning fikricha antonimya va antonimlik-bir narsa emas. U farqlovchi belgilar majmuini antonimlik deb atash mumkinligini va bu hol esa, aksariyat til birliklari uchun umumiy bo’lgan lingvistik xodisa sifatida tushunishga bog’liqligini aytadi. Olimning fikricha, ma’noni farqlash frazeologizmlarning ma’lum ma’nolarini bir necha leksikografik manbalarga binoan kontekst orqali tekshirish tahlili natijasida ajratiladi va quyidagi belgilarga qarab farqlash mumkinligini ko’rsatadi:

1.Ma’nosini butunlay tushunarli ikki antonim so’z, yoki tarkibida frazeologizmlar ma’nosini izohlovchi so’z birikmalri bo’lgan antonim so’zlar: ***In an ill hour (baxtga qarshi)- in a good hour (baxtga ko’ra)-*** kabi misollar bilan izohlash mumkin.

2.Ikki so’z birikmasi: birinchi holatda tasdiq, ikkinchi holatda inkor: ***keep off the grass (birovning ishiga burnini tiqmaslik) poke one’s nose into somebody’s affiars (birovning ishiga burnini tiqish)-*** kabi. Bu yerda **keep off** va **poke..into.** bir-biriga nisbatan tasdiq va inkor holatdagi so’z birikmasi sifatida qo’llanilgan.

3.Bir –biriga semantik jihatdan qarama-qarshi bo’lgan ikki so’z birikmasi-frazeologizm yoki so’z bo’lishi mumkin, boshqasi-erkin so’z birikmasi yoki mustaqil so’z bo’lishi mumkin***: keep one’s hair on- keep one’s temper, lose one’s hair- lose one’s temper,***

Yuqoridagi fikralardan kelib chiqqan holda, biz ham frazeologik antonimyaga tilshunoslikdagi lingvistik xodisa sifatida qarab, ushbu magistrlik dissertatsiyamizda ushbu xodisaga to’xtalib o’tmoqchimiz.

Antonimlik lisoniy hodisa sifatida frazeologik birliklarga ham, alohida olingan so’zlarga ham xosdir. Kuztishlar natijasida, so’z va Fblar aro antonimlik tushunchasining o’xshashlik va farqli tamonlari ko’rsatilgan.So’zlar va

frazeologi birlik antonimligi umuiylikni ifodalovchi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, barcha birliklar, ularninh mavhum munosabatlarini anglatishi, keng yoki o'lchamli munosabatlar va b. So'z va frazeologizmlar hisoblanadi. Antonim so'zlarda va frazeologik birliklarda quyidagi birliklar kuzatildi: the sky- the blue blanket, echo-burden of song, eagle- the bird of Jove va b. Antonim tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshiligi mavjudligi tan olindi va til birliklarining semantik qarama-qarshiligi ochiq oydin kuzatiladi: obey-disobey, fair-play – foul play[35;80].

Zid ma'noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchalarni ifodalaydalashi hammamizga ma'lum. Masalan o'zbek tilidagi "**ko'ngli joyiga tushdi-yuragiga g'ulg'ula tushdi**", "**qoni qaynadi-og'zi qulog'iga yetdi**" iboralarni bir biriga antonim iboralar sifatida qaraladi. Yoki xuddi shu ma'nolarni ifodalovchi, ya'ni "**hotirjam bo'lmoq va tashvishlanmoq**" ma'nosini ifodalovchi ingliz tilidagi "**calm down – worry about**" farzeologik fe'llar yoki **"achiqqlanmoq, qizishmoq- behad sevinmoq"** ma'nolarini beruvchi **"make smb's blood boil – happy as a lark"** kabi frazeologizmlarni bir biriga antonim frazeologizmlar deb aytish mumkin. Tadqiq etilayotgan frazeologizmlar, tahlilining ko'rsatishicha, o'z leksik tuzilishi bilan butunlay farqlanadigan birliklarga qarama-qarshi qo'yiladi.

Antonimiya xodisasini barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan iboralar orasidan aniqlab olish oson.Masalan o'zbek tillaridagi **"savol bermoq"** va **"javob qaytarmoq"**; **"yerga urmoq**" va **ko'kga ko'tarmoq**" kabi iboralar. Bu iboralarda birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so'z komponent (**savol-javob), (bermoq-qaytarmoq**), ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so'z komponentlar **(yerga-ko'kga**) o'zaro antonimdir. Yoki ingliz tillaridagi "**ask a question**" va **"give an answer**" iboralarida ikkinchi so'z komponentlari **(question- answer**) o'zaro antonimdir.

Frazeologik antonimlarda qantashgan biror leksik komponentlar ayni bir so'zning o'zi va ikkinchi bir leksik-komponentlar o'zaro antonim so'zlar bo'lishi mumkin:

- Yuragi keng –yuragi tor **(keng-tor)**
- So’zida turmoq- so’zidan qaytmoq **(turmoq- qaytmoq)**
- Savol bermoq – javob bermoq **(savol-javob)**
- Dunyoga kelmoq- dunyodan ketmoq **(kelmoq- ketmoq)**
- Esdan ko’tarilmoq- esga keltirmoq **(ko’tarilmoq- keltirmoq)**
- Yomon ko’rmoq- yaxshi ko’rmoq **(yaxshi -yomon)**
- Istarasi issiq- istarasi sovuq **(issiq- sovuq)**
- Ko’ngli qora – ko’ngli toza **(qora –toza)**
- Ko’ziga issiq ko’rinmoq- ko’ziga sovuq ko’rinmoq **(issiq- sovuq)**
- Ko’ngli bo’sh- ko’ngli qattiq **(bo’sh- qattiq)-** kabi ko’plab misollarni keltirish mumkin.

Ingliz tilida ham frazeologik antonimlarda qatnashgan biror leksik komponentlar ayni bir so’zning o’zi va ikkinchi bir leksik-komponentlar o’zaro antonim so’zlar bo’lgan frazeologizmlarni uchratish mumkin:

- Have a heart of gold- have a heart of stone (**gold- stone**) = Ko’ngli bo’sh- ko’ngli qattiq **(bo’sh- qattiq)**
- Give a quetion- give an answer **(question – answer)=** Savol bermoq – javob bermoq **(savol-jabovb)**
- Keep one’s word – break one’s word **(keep- break) =** So’zida turmoq- so’zidan qaytmoq **(turmoq- qaytmoq)**
- Come to mind – slip one’s mind **(come- slip) =** Esdan ko’tarilmoq- esga keltirmoq **(ko’tarilmoq- keltirmoq)**
- **Pass away – be born = Dunyoga kelmoq- dunyodan ketmoq**. O’zbek tilidagi frazeologik antonimlarda “ kelmoq- ketmoq” kabi o’zaro antonim so’zlar bilan ifodalangan ammo, “**pass away – be born”** iboralari esa bir biriga antonim frazeologim sifatida qa’bul qilinsada, ularning tarkibidagi kopmonentlar umuman boshqa -boshqa so’zlar bilan ifodalangan.

Yoki tilshunoslikda shunday antonim frazeologizmlar uchraydiki, ular tarkibida o’zaro sinomim bo’lgan so’z komponentlar yoki aynan bir so’z bilan

ifodalangan so’z komponentlar bo’lib turib ham ma’no jihatdan bir biriga nisbtan frazeologik antonimlarni uchratish mumkin. Masalan, o’zbek tilidagi **“ko’ngli joyiga tushdi”** va **“yuragiga g’ulg’ula tushdi”** , kabi o’zaro antonim bo’lgan frazeologizmlarga e’tibor qilsak. Bu antonim iborlar tarkibidagi leksik komponentlarning uchunchisi ayni bir so’z (**tushdi- tushdi**), birinchisi o’zro sinonim (**ko’ngli – yuragi(ga**)), ikkinchisi esa o’zaro ma’no munosabatni hosil qilmaydi **(joyiga- g’ulg’ula**).

Endi ingliz tilidagi **“Have a heart of gold”** va **“ have a heart of stone**” iboralariga e’tibor qilsak. Bu iboralarda birinchi va ikkinchi so’z komponent aynan bir so’zning o’zi bilan ifodalangan: **have- have**; **a heart- a heart**- kabi. Ammo, uchunchi leksik komponentlar esa o’zaro ma’no munosabatni hosil qilmaydi **(gold-stone**).

Bundan ko’rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so’z komponentlar bu iboralarning o’zaro antonim bo’lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, barcha antonim iboralar tarkibida ham antonim so’z-komponentlar qatnashavermas ekan. Va bunday iboralarda antonimya iboralardan yahlitligicha anglashiladigan lug’aviy ma’no asosida belgilanadi[34;8]**.**

Sinonimyada bo’lganidek, antonimik munosabat ham polisemantik iboralarda har bir ma’noga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik iboraning bir ma’nosiga antonim bor bo’lishi, boshqa bir ma’nosiga esa yo’q bo’lishi mumkin.

Masalan, o’zbek tilidagi **“savol bermoq”** iborasi monosematik iborasiga uning 5 ma’noga ega bo’lgan **“javob bermoq”** iborasining birinchi ma’nosigina antonim bo’lishi Sh. Rahmatullaevning izohli lug’atida ko’rsatilgan:**“Javob bermoq”**:



“ketish”ga ruhsat bermoq

Ammo, faqat birinchi ma’nosiga nisbatan antonim ibora sifatida **“ savol bermoq”** iborasini ishlatish mumkin. Qolgan to’rt ma’nosiga esa frazeologik antonim yo’q.

Endi ingliz tilidagi “**give sb an answer”** iborasini ma’nolariga e’tibor qilsak.



Bu iborani: 1. savolga og’zaki javob bermoq 1.a. xat yoki e’longa yozma javob bermoq; 2.telefonga yoki eshikga javob bermoq; 3.test yoki musoboqalarda og’zaki yoki yozma javob bermoq 4.Yechim – degan ma’nolarga ega. Va bu iboraning 1 – va 3 – ma’nolariga nisbatan antonim frazeologizm sifatida “**answer a question**” iborasini qo’llashimiz mumkin. Ammo, qolgan ma’nolariga nisbatan bu ibora antoim sifatida qo’llanilmaydi.

2.4 Ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologizmlarda polisemiya masalasi

Bittadan ortiq ma’noni anglata olish til birliklariga xos xususiyat bo’lib, ingliz va o’zbek tillarifagi iboralarining ham talay qismida uchraydi. Polisemiya so’zga ham iboraga ham xos xosdisa bo’lishiga qramay, ularning leksikada va frazeologiyada tarqlish darajasi bir xil emas. Prof. Sh. Rahmatullaevning hisob kitoblariga ko’ra, “ o’zbek tilidagi so’zlarning faqat 20% polisemantik bo’lsa, “O’zbek tilining qisqcha frazeologik lug’ati” da talqin etilgan 998 iboraning 156 tasi ko’p ma’noli xususiyatga egadir[34;8]**.**

“Frazeologik polisemiya deyilganda iboraning o’zi bittadan ortiq frazeologik ma’no anglatish” [33;13], tushuniladi. Ingliz va o’zbek frazeologiyasidagi iboralarning ma’lum qismi bir ma’nolidir. Masalan ingliz tilidagi Macmillan English dictionaryda va Sh.Rahmatullaevning Frazeologik

izohli lug'atida faqat bir ma'noga ega bo'lgan ya'ni monosemantik frazeologizmlar ham bor.

Aytib o'tilganidek, ingliz va o'zbek tillaridagi bir ma'noli frazeolozimlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo, biz ushbu magistrlik dissertatsiyamizning bu qismida polisemantik frazeologizmlarga asosiy e'tiborimizni qaratmoqchiligimiz sababli, manosemantik iboralarning na ingliz tilidagi na o'zbek tillaridagi leksik-semantik muqoyasasiga to'xtalib o'tmadik.

O'zbek tilida ko'proq 2 ma'noli polisemantik iboralarni uchratish mumkin. Masalan:

1. **Suyak-suyagidan o'tib ketmoq** → **Jismiga chuqur ta'sir qilmoq (sovuq)**; → **Ruhiga chuqur ta'sir qilmoq (gap)**

Masalan: *Qarilik qursin. Salgina zah,* ***sovuq suyak-suyagimdan*** *o'tib ketadi, chiroq. (S. Anorboev, Oqsoy.) Tog'da bo'lsa ertayu kech izg'irin esib turar, sovug'i* ***suyak-suyakka o'tib*** *ketardi. (SH. Rashidov, Bo'rondan kuchli)*

2. Katta og'iz → **Soxta kibr-havoli; maqtanishni yaxshi ko'radigan**; → **Imtiyozli mavqega ega (kinoyali)**

Masalan: *Qodirov* ***og'zi katta*** *erkaklarni qanoti ostiga olish yo'li bilan o'z mavqeni kuchaytirishga intilganini sezib turardi. (SH. Rashidov, Bo'rondan kuchli) Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy, o'z xotinining* ***katta og'iz*** *va betamizligiga achchiqlanib, yuzini teskari burdi. (Oybek. Qutlig' qon).U kishi ilgari " Men Qamishkapaning ustuniman",- deb chirangan* ***og'zi kattalardan. (****P. Tursun, O'qituvchi****)***

3.Sof dil → **Vijdonli**; → **Beg'araz**

Masalan: *Onaxon-chi? Ishondi qo'ydi. "Yaxshi**, sof ko'ngil** kishi ekan",-deb, zavq bilan maqtab yurdi.(A. Muxtor, Opa-singillar)*

*U juda sodda, **sof dil** va ishonuvchan bir kishi. (S.Ayniy, Sudxo'rning o'limi)*

4. Balog'atga yetmoq → **Yoshi oila qurish darajasiga bormoq(yigit-qiz)**

4. Balog'atga yetmoq → **Yetuk, yuksak darajaga erishmoq(umuman)**

Masalan: "*Ertaga qizingga **balog'atga yetgan** deb spravka qilib beraman", -dedi Tojiboy.(P. Tursun, O'qituvchi).*

*.....harbiyda tishi chiqib, harbiyda **balog'atga yetgan** kapitanga taktikadan dars bermoqchi, deb o'yladi.(I.Rahim, Chin muhabbat).*

Yuqorida keltirilgan frazeologizmlar ko'rinib turganidek ikki ma'noni ifodalaydi. Endi ularni ingliz tilidagi ekvivelentlari bilan qiyoslaymiz:

1. **Chilled/frozen to the bone** ⟶ **Feeling very cold in every part of your body**

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi ***suyak-suyagidan o'tib ketmoq*** iborasi 2 ma'noni ya'ni (***sovuq) jismiga o'tib ketmoq*** yoki ***(gap) ruhiyatiga ta'sir qilmoq*** ma'nolarini ifodalaydi. Ammo aynan shu iboraning ingliz tilidagi ekvivalenti ***frozen to the bone*** esa o'zbek tilidagi iboraning faqat birinchi ma'nosigagina ekvivalent bo'la oladi. Bu iboraning ikkinchi ma'nosi esa ingliz tilida boshqa bir alohida ibora bilan ifodalanadi:

1.2Close to the bone ⟶ telling the truth about a subject that people perefer not to think about, in a way that may offend or upset people

Masalan: *His comments about racism may be too close to the bone for some people (Macmillan, 156p)*

2. **Big mouth** ⟶ **used as a criticisim of someone when they things that they should not**

Demak, o'zbek tilidagi ***katta og'iz*** iborasi, ingliz tilida leksik jihatdan aynan bir xil bo'lsa ham ***big mouth***), ularning semantikasida biroz farqni

ko’rish mumkin. Ya’ni o’zbek tilidagi ibora (1) ***ko’p maqtanadigan*** insonlarga nisbatan va kinoya sifatida (2) ***mavqei balan insonlarga*** nisbatan qo’llansa, ingliz tilidagi ekvivalenti esa faqat bir manoda ya’ni ko’p (1)***gapiradigan odamlarga*** nisbatan ishlatiladi. O’zbek tiling Xorazm shevasida esa, kerak-kerakmaydigan ko’p gapiradigan odamlarga nisbatan ***og’zi bo’sh*** iborasi qo’llanadi. Shunday qilib, ingliz tilidagi ***Big mouth*** iborasining aynan ekvivalenti deb Xorazm shevasidagi ***og’zi bo’sh*** iborasini keltirish mumkin.

Endi e’tiborimizni o’zbek tilidagi ***balog’atga yetmoq*** iborasiga qaratsak. Bu iboraning ekvivalenti sifatida ingliz tilidagi grow up iborasini keltiramiz:



Ko’rinib turganidek, ***balog’atga yetmoq*** iborasining aynan birinchi va ikkinchi ma’nolarini ingliz tilidagi ***grow up*** iborasi bera oladi. Demak, o’sha ikki ma’no semantikasi bo’yicha ularni ekvivelent ibora deyishimiz mumkin. Ammo, ingliz tilidagi bu iboraning uchinchi ma’nosi ham mavjud. Va bu ma’no munosabati bo’yicha, ular ekvivalent ibora bo’la olmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko’rinib turubdiki, ham ingliz tilida ham o’zbek tilida ko’plab ikki ma’noli polisemantik iboralarni uchratish mumkin. Ularning leksik-semantik xususiyatlari ham o’ziga yarasha holatlarda ifodalangandir.

Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo’lganidek, bosh ma’no va yasama (hosila) ma’no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma’no to’g’ri ma’noga, hosila ma’no esa ko’chma ma’noga teng. Frazeologik polisemiyada esa, bundan farqli ravishda, bosh ma’no ham ko’chma (obrazli) ma’no bo’ladi, chunki har qanday frazeologik ma’no ustma, ko’chma ma’no sifatida yuzaga keladi[34;5].

Ingliz va o’zbek tili frazeologizmlari orasida anchagina uch ma’noli frazeologizmlarni ham uchratish mumkin. Masalan, Rahmatullaev Shning “O’zbek tilining izohli frazeologik” lug’atida, ***“bel bog’lamoq” , “bino qo’ymoq” , “boy bermoq”, “bosh suqmoq”, “bo’yniga olmoq”,” bo’yniga qo’ymoq”, “joni(ni) olmoq”, “zimmasiga olmoq”, “zo’r bermoq”, “ko’zi qiymadi” , “ko’z tikmoq***”, – kabi ko’plab uch ma’noli polisemantik iboralarni uchratsak, ingliz tilidagi “Macmillan English Dictionary”da esa, ***“answer for”, “batten down”, beat down’, “black out”, play around”, “play up”, Relieve of”, “return to”, “show off”, “hands up’-*** kabi yuzlab uch ma’noli polisemantik frazeologizmlarni uchratish mumkin.

Demak, ingliz tilida ham, o’zbek tilida ham polisemantik iboralarlarning ko’proq 2 va 3 ma’nolilarini, ba’zan ikkilla tilda ham 4,5, 6 ma’noli polisemnatik iboralarni ham uchratish mumkin.

Ammo, tilshunos B. Yo’ldashevning fikricha iboralarning ko’p ma’noliligini faqat lug’atlar asosida belgilash to’g’ri bo’lmaydi.Chunki, lug’atlarda ko’pgina iboralarning polisemantik xususiyati to’la ochib berilgan emas. Masalan, “**qo’l ko’tarmoq “** iborasining ingliz tilidagi ekvivalenti ***” hands up”*** iborasi bilan leksik-semnatik xususiyatlarini taqqoslasak. Ingliz tilidagi ***hands up*** iborasi uch ma’noga ega:



Yuqorida keltirilgan ***hands up*** iborasining ekvivalenti sifatida o'zbek tilidagi ***qo'l ko'tarmoq*** iborasini keltirish mumkin. Ammo, bu ibora Sh. Rahmatullaevning izohli lug'atida faqat bitta ma'noli ibora sifatida qayd etilgan. Ya'ni uning faqat bitta ma'nosi ya'ni, ***"Ta'slim bo'lganini bildirmoq"*** ma'nosi berilgan. Ammo, bu iboraga o'zbek tilida bir ma'noli ibora sifatida qarash noto'g'ri bo'ladi. U yana **"tarsaki tushurmoq**" ma'nosini ham ifodalay oladi. Ammo, bunday ma'no semantikasi ingliz tilidagi hands up iborasi bilan ekvivalent bo'laolmaydi.

Ko'p ma'noli iborada uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Ba'zi iboralarning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug'iladi. Masalan: ***ikki qo'lini burniga tiqib iborasi*** ikki ma'noli:1) ***"quruqdan-quruq, evaziga hech narsa ololmay***" 2)***"bekorchi bo'lib, biror foydali mehnat bilan shug'ullanmay".*** Bu ma'nolar o'zaro bog'lanmaydi, chunki asosida har xil obraz, boshq –boshqa voqelik yotadi: birinchisida ***band qo'l bilan borib (nimadir olib borib), bo'sh qo'l bilan qaytish***, ikkinchisida esa ***qo'lni biror yumush bilan bad qilmaslik.***

Ingliz tilidagi ko'p ma'noli iboralarning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'lsa, ba'zi iboralar har biri o'zicha shakllangan, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug'ilganligi sababli ularning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi. Masalan: ***tone down*** iborasi ikki ma'noli:1) ***to make something less severe, shocking, or offensive*** 2) ***to make the colour, flavour etc of something less strong.*** Bu ma'nolar ham o'zaro bog'lanmaydi, chunki asosida har xil obraz, boshq –boshqa voqelik yotadi: birinchisida ***biror hafa qiladigan holatni yumshatish*** ikkinchisida esa ***rangni, ta'mni va h.k ni kuchsizroq tayyorlash (qilish).***

Frazeologik ma'nolarning bir-biridan o'sib chiqmaganligini ba'zan ibora tarkibidagi so'z-komponentlarning boshqa-boshqa leksik ma'noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. Masalan, ***hayol(i)ga kelmoq*** iborasi ikki ma;noli: 1) ***"o'ylanmoq", idrok qilmoq, fahmlamoq***", 2) ***"hotirasida tiklanmoq***". Bu ibora

tarkibidagi ***hayol*** so'zi birinchi fraazeologik ma'noda ***"o'y, fikr",*** ma'nosi bilan, ikkinchi frazeologik ma'noda esa ***"xotira***" ma'nosi bilan qatnashgan.

Ingliz tiladi ba'zi iboralarning tarkibida ham so'z-komponentlarning boshqa-boshqa leksik ma'noda qatnashganligidan, frazeologik ma'nolarning bir-biridan o'sib chiqmaganligini izohlash mumkin. Masalan: ***tear/ rip to shreds*** iborasi ikki ma'noli; 1) ***if you tear or rip someone or something to shreds, you criticize them very severely or defeat them completely 2) to cause a lot of damage to something.*** Bu ibora tarkibidagi ***shred*** so'zi birinchi fraazeologik ma'noda ***"tanqid qilish",*** ma'nosi bilan, ikkinchi frazeologik ma'noda esa ***"zarar*** " ma'nosi bilan qatnashgan.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib shuni aytib o'tamizki, u qaysi tilda bo'lishidan qa'tiy nazar, biror asarni katta hajmdagimi yoki kichik, nasrdami yoki nazmda buni farqi yo'q, uni o'z ma'nosi va tasirchanligini saqlab qolgan tarzda tarjima qilish juda katta ahamiyatga ega. Demak ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda frazeologik birliklar to'gridan to'g'ri tarjima qilmay eng munosib variantlarini tanlab olish zarurdir.

Fikrimizni davom ettirgan holda shuni aytamizki, sinonimya variantdoshlikka nisbatan ancha keng tushunchadir. Filologiya fanlari doktori B. Yo'ldoshev o'zining "Frazeologik uslubiyat asoslari" nomli qo'llanmasida" Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar o'zbek tilining kuchli tasviriy-uslubiy manbalaridan biridir. Shuning uchun izohli, frazeologik va boshqa tip lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham, frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim" degan fikrni keltiradi.

Ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik sinonimiya va frazeologik variantdoshlik o'rtasidagi farqni anglash lozim ekanligi fazeologik uslubiyatda, har ikkala tilda ham juda muhim ahmiyat kasb etadi. Frazeologik birliklar sinonimyasi ma'no jihatdan ko'p qirralilik bilan birga, emotsional- baholsh, ekspressiv va funksional –stilistik bo'laklar sifatida rivojlanadi .

Ingliz tili frazeologiyasida ham, o’zbek tilshunosligi frzaeologiyasida ham har xil tuzilishi va bir xil tuzilishli antonimlar qatorlarini ajratish mumkin. Antonim-differensiator ko’p ma’nolilik, bir ma’nolik kabi ma’nolar muvofiqlashuvi xarakteriga bog’liq ravishda belgilanadi: agar bir frazeologizm boshqasiga qarama-qarshi qo’yilsa, uchinchilari ma’nosi bir necha hodisalarga mos keladi va antonimlik aloqlarda o’z ifodasini topadi. Shu bilan ta’kidlash joizki, antonim so’zlar frazeologizmning takroriy ma’nosida frazeologik antonimlarning faol qurilish materiali hisoblanadi(Q: Have a heart of gold- have a heart of stone (**gold- stone**) = Ko’ngli bo’sh- ko’ngli qattiq **(bo’sh- qattiq)).** Frazeologizmlar antonimyasining ko’zga tashlanib turgan xususiyati shundaki, qarama- qarshi qo’yiladigan birliklar tuzilishi xarakteri antonimik aloqa tabiatida iz qoldiradi. Agar biz live by one’s wits ikkinchi ma’nosida “ xalol yashamoq” va turn an honest penny (birinchi ma’nosida “ xalol pul topmoq”) kabi frazeologik juftliklarni qarama-qarshi qo’ysak, ularning semantik aspekti quyidagi qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Semantik planda ular eski ma’nolarini yo’qotib, yangilarini olishi, struktur planda turli bo’laklardan tashkil topishi, stilistik planda esa turli uslublarga taalluqli bo’lishi mumkin.

Ba’zan polisemantik iboraning bir ma’nosi juda kam ekspressivlikka, funksional xoslanganlikga ega bo’lsa, keyingi ma’nosi yuqori ekspressiv bo’yoqqa, kitobiy xususiyatga ham ega bo’lishi mumkinligi B. Yo’ldashev asarlarida keltirib o’tilgan. Undan tashqari olim, o’z asarlarining birida ko’p ma’noli iboralar uslubiy jihatdan yahlit xarakterga ega bo’lishini, chunki polisemantik iborada ko’pincha to’g’ri, nominativ ma’no bo’lmasligini, uning barcha ma’nolari ko’pnicha yahlit bir ichki obrazga birlashishini ta’kidlab o’tishi, yuqoridagi fikrlarimizni ochiq oydin izohlab ko’rsatadi.

UCHUNCHI BOB. INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

3.1.Ingliz va o’zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning semantik aspekti.

Ingliz va O’zbek tillaridagi frazeologiya dunyosi judayam keng va bepayon. Shubxasiz, uning har bir jabxasi jahon tilshunoslarning e’tiborini tortadi. Frazeologizmlar muammosi V.L.Arxangeliskiy, A.M.Babkin, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, V.M.Mokienko, V.N.Teliya kabilarning, turkiyshuoslardan esa S.Kesenbaev, Sh.Rahmatullaev, G.A.Bayramov, G.X.Axunzyanov, Z.G.Uraksin, L.K.Bayramova, M.F.Chernov, B.Yo’ldashev kabi tilshunoslar tomonidan u yoki bu sohada tadqiq etilgan.

Frazeologik birliklarning ko’pchiligi inosiyat va uning hayotiy faoliyati bilan uzviy bog’liq va bunday tematik guruhlarga birikgan frazeologizmlarni somatik frazeologizlar deb ataymiz.

Oxirgi o’n yildan beri, somatik frazeologizmlar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi bo’lib kelmoqda. Masalan: rus va polsha tillarida (M.Gordi), rus va nemis tillarida (R.Mugu), qozok tilida (E.Nikolina), rus va ispan tillarida (V.Yokovleva), o’zbek tilida (A.Isaev)va o’zbek va turk tillarida (Sh.Usmanova) va boshqa ko’plab tilshunoslar somatik frazeologizmlarni tadqiq etganlar. Ammo ko’pgina zamonaviy tilshunoslar somatik frazeologizmlarni keng tadqiq etishlariga qaramay, ingliz va o’zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar to’la to’kis yortilimagan lingivistik fenomena sifatida qolyapti. Ingliz va o’zbek tillaridagi somoatik frazeologizmlar tilning buyuk, mahsuldor qatlami bo’lishi bilan bir qatorda, ular kundalik hayotimizning texnologiya, ta’lim, madaniyat, adabiyot, bizness dunyosi va siyosatda kabi jabhalarida ham qo’lanilib kelinmoqda.

Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning uchinchi bobining asosiy maqsadi ingliz va o’zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni lingivistik xodisa sifatida ko’rib chiqishdir.

Somatik frazeologizmlarga murojaat etishdan oldin, biz “somatizm” atamasiga to’xtalib o’tmoqchimiz. “Somatizm” grekcha “soma” “tana” ma’nosini anglatuvchi so’zdir. Somatizmlarda nafaqat inson ta’nasi bilan bog’liq bo’lgan so’zlar balki insoniyat va hayvonot organizmlari bilan bog’liq bo’lgan so’zlar ham tushuniladi.

Obyektdan kelib chiqib ma’no anglatishiga ko’ra somatik frazeologizmlarni quyidagicha tasniflash mumkin[53;11]:

- **Somonimik-** ya’ni inson tana a’zolari bilan ifodalanuvchi (qo’l, bo’yin) . Masalan: ***Boshidan oyog’igacha - from head to foot, yelkama-yelka turib-stand shoulder to shoulder va h.k***
- **Osteonimik** –ya’ni inson organizmining sklet sistemalari bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar*:* ***skin and bones (qoq suyak) va h.k***
- **Angionimik-** ya’ni inson organizmining qon aylanish sistemasi bilan bog’liq so’zlar bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar*:* ***blue blood(oq suyak)***
- **Splanchnonimik** – ya’ni inson organizmining ichki organlari bilan bog’liq bo’lgan frazeologizmlar: ***at the top of one’s lungs(ovozi boricha baqirmoq), from the bottom of the heart(chin qalbdan) va h.k***
- **Sensonimik** – inson organizmining sezish a’zolari bilan bog’liq frazeologizmlar**:** ***to be all ears(butun tanasi quloqqa aylanib) va h.k***
- **Umumiy tana a’zolari bilan bog’liq frazeologizmlar - *in the flesh, put flesh on sth,to press the flesh***

Ingliz va o’zbek tillaridagi tana a’zolari bilan bog’liq somatik frazeologizmlar ancha muhim. Ular inson fe’l –atvori bilan bog’liq xususiyatlarini, his-tuyg’ularni ifodalashi bilan ahamiyatli. Inson tana a’zolari bilan bog’liq leksemalar bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar ham pozitiv ham negativ semantik ma’no munosbatlarini ifodalaydilar. Shunga ko’ra ularni quyidagicha tematik guruhlarga ajratish mumkin[53;16] :

- **Inson ruhiy-kechinmalari va his tuyg’ularini ifodalovchi somatik frazeologizmlar**. Bu turdagi frazeologizmlar baxtlilik, xursandchilik, kulgi, ma’mnunlik kabi his – tug’ularni ifodalash bilan bir qatorda charchoq, xorg’inlik, umidsizlik kabi ma’nolarni ham bildiradi.
- **Inson xarakter hususiyatini ifodalovchi frazeologizmlar**. Bu turdagi inson tana a’zolari bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar ham

pozitiv ham negativ ma’nolarda ishlatilinadi. Erinchoqlik, qo’rqoqlik, mardlilik- kabi bir qator frazeologizmlar bilan ifodalanishi mumkin.

- **Turli xil xodisalarning xususiyatlari bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar**. Bu turdagi somatik frazeologizmlar hayotning turli jabhalaridagi holatlar bilan bog’liq bo’ladi. Masalan birdamlik va tinchlik ma’no munosabatini ifodalovchi , da’vat etish va yon berish ma’no munosabatlarini ifodalovchi ,kuch-quvvatni ifodalovchi va boshqalar.

O’zbek tilshunosligida ham somatik frazeologizmlarni semantik guruhlarga ajratgan olimlardan , A.Isayev ishining ikkinchi bobida “bosh” va “ko`z” so`zlari bilan bog`liq frazemalar semantik guruhlarga ajratiladi. Masalan, “bosh” so`zli frazemalar ma`noviy xususisyatlariga ko`ra quyidagicha guruhlangan: **insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazemalar**: *boshi osmonga yetmoq, boshi g`ovlab ketmoq, xushi boshidan uchmoq kabi;* **insonning aqliy, faoliyatini ifodalovchi frazemalar:** *boshini qotirmoq, boshidan kechirmoq kabi*; **insonning aqlini, hayolini, xotirasini ifodalovchi frazemalar:** *boshi ishlaydi, boshidan o`tgan, boshi bilan kabi***;” jazolash” tushunchasini ifodalovchi frazemalar**: *boshida danak (yong`oq) chaqmoq, boshida tegirmon toshi aylantirmoq, boshiga kulfat solmoq kabi*; **kasallik tushunchasini ifodalovchi frazemalar**: *boshi yostiqqa tegmoq, boshi yorilay deyapti kabi*; **“o`lmoq, yemirilmoq” ma`nolarini ifodalovchi frazemalar:** *boshini yemoq, bosh olmoq, boshiga suv qo`ymoq kabilar.*

Muallif *ko`zining paxtasi chiqdi, ko`zi yorimoq, ko`zini moshdek ochomoq singari* frazemalarni o`zbek tili frazeologik fondining o`ziga xos frazemalari deb hisoblaydi, chunki, bu frazemalarning boshqa tillarda muqobillari yo`q. (Mardonov O`ktamjon “ G’afur G’ulomning “ Shum bola” qissasida qo’llangan somatik frazeologizmlar”).

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, somatik frazeologik birlikda -kamida bitta leksema inson yoki hayvon tana a’zosi bilan bogliq bo’lgan so’z bilan ifodalanadi. Olib borilgan

kuzatishlar natijasida shuni aytiz mumkinki, ingliz va o’zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarda eng faol ishtirok etadiga so’zlar : ***qo’l, ko’z, bosh , yurak, oyoq*.** O’zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida “ko’z” komponentli iboralar salomqli o’rin egallashini aytib o’tmasdan ilojimiz yo’q. Masalan :“O`zbek tilining izohli lug`ati “ (O`TIL) da “ko`z” qatnashgan 80 dan ortiq ibora qayd etilgan [O`TIL,1, 410-411]. Sh. Rahmatullayevning “O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati” (O`TIFL) da158 ta shunday ibora mavjudligi qayd etilgan [O`TIFL,132-151]. Agar biz bu lug`atlarda kektirilgan “ko`z” so`zi ishtirokidagi iboralarning barcha variantdoshlarini ham inobatga oladigan bo`lsak, ularning umumiy soni 190 dan ortadi. A. Isayev “O`zbek tilida somatik frazeologizmlar” nomli tadqiqotida “Ko`z” komponentli iboralar tilimizda 127 taligi qayd qilinadi.. Uning ta`kidlashicha, “ko`z” komponentli iboralar mahsuldorligi jihatdan rus tilida ikkinchi o`rinni, turkman tilida beshinchi o`rinni, latish tilida ikkinchi, ingliz va nemis tillarida uchinchi o`rinni egallaydi [3]. (Mardonov O`ktamjon “ G’afur G’ulomning “ Shum bola” qissasida qo’llangan somatik frazeologizmlar”).***Quloq, orqa, qon, burun, barmoq, suyak, soch , tana , tish, til, bo’yin*** – kabi so’z komponentlar bilan ifodalanuvchi somatik frzaeologizmlar ingliz va o’zbek tillarida ozroq mahsuldor hisoblansa**,** ***yelka, panja, tirnoq, tamoq, og’iz, miya, yanoq*** – kabi so’z komponentlar somatik frazeologizmlarda eng kam mahsuldorlaridir. Ishimizning keyingi rejalarida eng mahsuldor “ bosh” “ qo’l” va “ oyoq “ so’z komponenti qatnashgan ingliz va o’zbek tillaridagi 120 ta frazeologizmlarni leksik- semantik xususiyatlarini ko’rib chiqamiz.

3.2 Ingliz va o’zbek tillaridagi “bosh” so’z komonenti qatnashgan somatik frazaeologizmlarning tahlili.

Biz ushbu magistrlik dissertatsiyasi uchun tanlab olingan “head”(“bosh”) so’z komponenti qatnashgan 40 frazeologizmlarni tahlil qilish natijasida, 17 iborani o’zbek tilidagi absalyut va yaqin ekvivalentlarini aniqladik. Chunki, ularda bir xil so’z komponent qatnashgan, ya’ni ikkala tildagi ekvivalentlarda ham aynan “ bosh” so’z komponenti qatnashgan bo’lib, ular semantik jihatdan

aynan bir xil ma’nolarda ishlatilinadi, 7 iborani o’zbek tilidagi qisman ekvivalentlari borligini izohlab o’tmoqchimiz. Chunki ingliz tilida “head” (“bosh”) so’z komponenti qatnashgan bo’lsa, o’zbek tilidagi ekvivalentlari boshqa tana a’zolari bilan ifodalangan, ammo semantik jihatdan bir xil ma’no munosabatini bildiradi, qolgan 16 ta iborani o’zbek tilidagi muqobil variantlari e’tirof etildi. Shundan 6 tasi inson ruhiy holati va his tuyg’ularini ifodalovchi somatik iboralar bo’lsa, qolgan 10 ta ibora turli xil voqea xodisalar xususiyatlarini ifodalovchi somatik frazeologizmlar ekanligi aniqlandi. Quyida ingliz va o’zbek tillaridagi absalut va yaqin ekvivalent bo’lgan somatik frazeologizmlarni tahlil qilamiz. Ularning leksik-semantik xususiyatlari sintaktik, grammatik va semantik jihatdan taqqoslangan:

From head to foot(11)	**Boshdan oyoq**	**To’la –to’kis, bust-butun**
Prep+ noun+ prep+ Noun	Noun+ noun	

Ikkala frazeologizm ham ***to’la –to’kis*** degan ma’noda ishlatiladi. Ammo ingliz tilidagi ekvivalent, o’zbek tilidagiga nisbatan ancha torroq ma’no anglatadi.Ammo, bu idiomalar leksik jihatdan absalut ekvivalent bo’la oladi. Grammatik jihatdan , o’zbek tilida predloglar yo’qligini hisobga olgan holda, ularni ikkalasi ham ot so’z turkimidan yasalganligini hisobga olsak, ular aynan ekvivalent iboralardir. Ammo semantik jihatdan o’zbek tilidagi varianti ancha keng ma’noda ishlatilinadi. Chunki ingliz tilidagi variant faqat inson tana a’zosiga nisbatan qo’llaniladi.

Masalan: Ergashni xuddi hozirgina ko’ryotgan kishiday ***boshidan oyoq ko’zdan*** *kechirdi (G’.Ahmadiy, Kamolot)*

The woman was dressed in yellow ***from head to toe.***

Bu misollarning ikkalasida ham ***inson butun tanasi*** nazarda tutilgan. Ammo, o’zbek tilidagi quyidagi misolda ***boshdan oyoq*** iborasi inson tanasiga nisbatan qo’llanilmagan:

Masalan: Gazeta ***boshdan oyoq*** *intizomni yaxshilishga...qaratilgan edi.*

*(P.Qodirov, Uch ildiz***)**

one's head is buzzing(28)	**Bosh(i) g'ovlab ketdi**	**O'ylayverib gangimoq,**
(Sb's) + noun+ V	Noun+ V	

Bu ikkala frazeologizmlar ham ***o'ylayverib gangimoq*** degan ma'noni anglatadi. Bu idiomalar bir biriga nisbatan absalut ekvivalentdirlar. Ya'ni ular semantik, leksik va sintaktik jihatdan bir hil darajadadirlar. Grammatik jihatdan ikkalasiyam **ot+ fe'l** qo'shiluvidan, semantik jihatdan bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Masalan: Sochining damba-dam yuziga tushib, g'ashini keltirishi ko'p o'qib, ***boshining g'ovlashi*** *ustiga qo'shildi-yu,.....(P.Qodirov, Uch ildiz)*

My ***head was buzzing*** *after I left the meeting last night.*

bang one`s head against a wall(1)	**Bosh(i) borib devorga urilmoq**	**Umidsiz narsaga vaqt sarflab, hech narsaga erisha olmaslik**
V+(sb's)+**noun**+prep+**noun**	**N +N +V**	

Bu ikkala ibora ham semantik jihatdan bir xil ma'noda qo'llaniladi. Biroq ingliz va o'zbek tillaridagi gap tuzilishidagi farqqa ko'ra ingliz tilida, fe'l so'z turkimi oldin, o'zbek tilida esa oxirda kelgan. Lekin ikkalasida ham bir xil so'z komponentlari qo'llangan : ***Bang- urilmoq , bosh –head, devor- a wall***. Demak, bu iboralarda so'z tartibi xar xilligini hisobga olgan holda ularni ***yaqin ekvivalent (Close equivalence)*** ibora deya olamiz

put one's heads together(25)	**Bosh(lar)ni bir joyga qovushtirmoq**	**Hamjihat bo'lib birlashmoq**
V+ (sb's)+ V(pl)+ adv	N(pl)+ adv+ V	

Bu iboralar ham semantik jihatdan aynan bir ma'noda qo'llaniladi. Ikkala iborada ham bir xil tana a'zo ko'plik shakilda ishtilinadi. Ammo bu iboralarda ikki xil fe'l qatnashgan : ***put(qo'ymoq)- qovushtirmoq***. Demak, bu iboralarda

xar xil fe’llar qatnashganligini inobatga olsak, ular qisman ekvivalent iboralardir. **(Partial equivalence).**

*Masalan: Mahmud yetmish yigitning **boshini bir yerga qovushtirib**, har kechasi bosmachi qo’ngan joyga bosqin qilaverdi.(S.Ahmad, Xotiralar)*

*We **put our heads together** to try and find a solution to the problem.*

scream one's head off laugh one's head off(29)	**Boshi(ga) ko’tarmoq**	**1.Qattiq shovqin qilmoq (o’zbek-ingliz) 2. Yuksak darajada izzat hurmat qilmoq (O’zbek)**
V+(sb’s)+noun+prep	Noun+ verb	

Yuqorida keltirilgan iboralar bir xil tana a’zolari qatnashgan iborlar bo’lsada, ular turli xil fe’lar bilan ifodalanganlar va sintaktik jihatdan tuzilishi ham farqli. Shunga qaramasdan, ular semantik jihatdan bir xil ma’noda ishlatilinadi. Ammo, ingliz tilidagi variantlar faqat bir ma’noga, o’zbek tilidagisi esa ikki ma’noga ega. Ular qisman ekvivalent iboralardir.

*Masalan: Atrof-tevarakda ko’chani **boshiga ko’tarib** yurgan bolalarning shovqini tingan (R.Fayziy, Qaynana)*

***I laughed my head off** during the movie. The girl **screamed her head off** after the accident.*
*Jamila xola ham Hamida kelguday bo’lsa, “qizim-qizim” deb **boshiga ko’taradi.***

Scratch one’s head (35)	**Bosh(i) qotdi**	**Uzoq o’ylab ham aniq bir fikrga kelolmaslik**
V+(sb’s)+ noun	Noun+ V	

Yuqorida keltilgan iboralar ham somatik frazeologizmlar bo’lib, ularda ham aynan “ bosh” so’z komponenti qatnashgan. Ular semantik jihatdan aynan bir xil ma’oda qo’llaniladi. Ammo, ular sintaktik jihatdan butunlay farqli: chunki bu iboralarda so’z tuzilishi farqli va ularda leksik jihatdan boshqa-boshqa fe’l qatnashgan: **Scratch(qashlamoq)- qotmoq**

Masalan: Bu ishning har tamonini o'ylay berib ***boshi qotgan*** *Toshpo'lat aka Qutbinisa bilan maslahatlashib, Jamila bilan ochiqroq bir gaplashishga qaror qilishdi (Mirmuhsin, Jamila).*

The electrician ***scratches his head*** *and he does not know how to fix the electrical problem.*

Endi ingliz tilidagi "head"("bosh") so'z komponenti qatnashgan iboralarning o'zbek tilidagi qisman ekvivalentlarini ko'rib chiqamiz

Have (smth) hanging over one's **head(**12) V+(smth)+ V +prep+ (sb's) + noun	**Yelkasiga** olmoq Noun+ Verb
Bury one's **head** in the sand(14) V+ sb's+noun+ prep phrase	**Ko'z** yummoq Noun+ verb
have **eyes** in the back of one's **head**(17) V+ noun+ perp ph+ sb's+ noun	Orqada ham **ko'**z bor bo'lmoq Adv+ noun+ verb
keep a cool **head(**26) V+ adj+ noun	O'zini **qo'lga** olmoq Pr+ noun+ v
keep one's **head**(27) V+sb's+N	**O'pkasini** bosib olgan bo'lmoq N+ verb
lose one's **head**(30) V+sb's+N	**O'pkasini** bosa olmaslik N+ verb
turn **heads**(38) V+noun	**Ko'zlarni** qamashtiradi Noun+verb

Yuqoridagi iboralarni ingliz tilidagi "bosh" so'z komponentli somatik iboralarning o'zbek tilidagi qisman ekvivalentlari sifatida e'tirof etishimizga sabab, o'zbek tilidagi iboralarda "bosh" so'z komponentil – inson tana a'zosining boshqa qismalari bilan ifodalangan. Jadvalda ko'rinib turganidek, ingliz tilidagi "head" so'z komponenti o'rniga, o'zbek tilida "qo'l", "o'pka", "ko'z", "yelka" so'z komponentlari ishlatilgan. Bundan tashqari bu iboralar sintaktik jihatdan ham farqlidirlar. Masalan: **turn heads** iborasi **fe'l+ o**t va

uning o’zbek tilidagi qisman ekvivalentida **noun** +**Verb** tuzilishiga ega. Umuman olganda “bosh” so’z komponentli o’zbek tilidagi iboralarning 90% ot+ fe’l tuzilishiga ega bo’lsa, ingliz tilidagi 90% iboralar **Verb+noun** tuzilishida ekan.

Navbatdagi jadvalda ingliz tilidagi “ head” so’z komponentli iboralarning o’zbek tilidagi muqobil variantlarini ko’rib chiqamiz. Ularni o’z navbatida ikki semantik guruhlarga ajratishimiz mumkin: **inson ruhiy holati va his tuyg’ularini ifodalovchi somatik iboralar**(5ta) va **turli xil voqea xodisalar xususiyatlarini ifodalovchi somatik frazeologizmlar** (10 ta).

Inson ruhiy holati va his tuyg’ularini ifodalovchi ingliz tilidagi “head” so’z komponenti qatnashgan somatik iboralarning o’zbek tilidagi muqobil variantlari

be weak in the head	**Aqldan ozmoq**
bite one’s head off	**Zahrini sochmoq**
fall head over heals in love with sb.	**Ko’ngil bermoq**
have one’s head in the clouds	**Hayol surmoq**
have swollen head	**O’ziga bino qo’ymoq**

Ingliz tilidagi “head” so’z komponenti qatnashgan turli xil voqea xodisalar xususiyatlarini ifodalovchi somatik frazeologizmlarning o’zbek tilidagi muqobil variantlari

be head and shoulders above	**O’lsa o’ligi ortiq (Sheva)**
do sth standing on one’s head	**Xamirdan qil sug’urganday**
have a head for	**Zehni o’tkir bo’lmoq**

have a head start	**O’ngidan kelmoq**
have old head on young shoulders	**Ullini kasib kichraytirgandek(sheva)**
have rocks in one’s head	**Alifni kaltak deya olmaslik**
head on	**Yashindek tez**
heads or tails	**Chikkami pukkami**
make head or tail of sth	**Kalavaning uchini topmoq**
talk through the back of one’s head	**Aravani quruq olib qochmoq**

Bu rejada to’plangan ma’lumotlar statistik tarzda tahlil qilindi va jadvallarga joylashtirildi. Ingliz tilidagi “head” so’z komponentli iboralarning, o’zbek tilidagi ekvivalentlari va muqobil variantlarning to’liq shakli ilovada qayd etilgan. Va ingliz va o’zbek tilidagi “head”(“bosh”) so’z komponentli somatik iborlarni tahlil qilish natijasida, ingliz tilida “head” so’z komponentli iboralar ko’pincha Verb+ pro+ noun shaklida, o’zbek tilidagi ekvivalentlari esa noun+ verb shaklida uchrashini aniqladik.

3.3 Ingliz va o’zbek tillaridagi “yurak” so’z komponentli iboralarning leksik-semantik xususiyatlari

Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning bu qismida ingliz tilidagi 50 ta “heart”(“yurak”) so’z komponenti qatnashgan iboralarning o’zbek tilidagi ekvivalentlari yoki eng muqobil variantlari ko’rib chiqildi. Bu tahlil orqali ingliz tilidagi “heart” so’zi o’rniga o’zbek tilidagi ibora va variantlar, “yurak” so’ziga nisbatan manodosh bo’lgan so’zlar bilan ifodalangan. Masalan quyidagi jadvalda ingliz tilidagi “heart” so’z komponenti o’rniga, o’zbek tilidagi

ibora va variantlarda boshqa ma’nodosh so’zlar qo’llanilgan ro’yhatni ko’rib chiqamiz:

1. Devour one’s **heart** V + pron + n	**Ich – bag’rini** yemoq
2. A hard heart Adj + n	Tosh**bag’ir**
3. Harden somebody’s heart Pron + n	Tosh**bag’ir** qilmoq
4. Have one’s heart in one’s mouth Pron + n +prep + pron +n	**Jon**i hiqildog’iga kelmoq
5. (With) heart and hand (Prep) + n + conj + n	**Joni** bilan
6. Heart and soul N + conj + n	**Jon – dili** bilan
7. (With) heart and hand (Prep) + n + conj + n	**Joni** bilan
8. Heart and soul N + conj + n	**Jon** – dili bilan
9. Search one’s heart V + pron + n	**Qalbiga** quloq solmoq
10.Find in one’s heart V + prep + pron +n	Kimningdir **qalbiga** yo’l topmoq
11.Be the heart and soul of smth V + art + n + conj + n + prep + pron	**Qalbig**a tugmoq
12.Break somebody’s heart V + peon + n	**Qalbini** tilka – pora qilmoq
13.Broken heart V + n	Vayron **qalb**
14.A heart of gold	**Qalbi** toza

N + prep +n	
15.A big heart Adj + n	Katta **qalb** egasi
16.Read people's hearts V + pron + n	**Qalbi**ni ko'rmoq
17.What the hearts thinks the tongue speaks Pron + art + n + v + art + n + v	**Dilda**gi tilga chiqar
18.Keep a good heart V + adj + n	**Ruxini** cho'ktirmaslik
19.Gain somebody's heart V + pron + n	Kimningdir **muhabbatini** qozonmoq
20.It makes the heart bleed Pron + v + art + n + v	**Qalbi** tilka pora bo'ldi
21.Lose heart V + n	**Kayfiyatin**i tushirmoq
22.My heart smote me Pron + n +v +pron	**Qalbim** ozor chekdi.

Ko'rinib turganidek, ingliz tilidagi iboralarda qo'llanilgan "heart" so'z komponenti o'zbek tilidagi ekvivalentlarida ypki muqobil variantlarida " qalb", "muhabbat", "jon", "kayfiyat", "rux", "bag'ir" kabi so'z komponentlar bilan ifodalangan. Bu so'zlar o'zaro ma'no jihatidan biri biri bilan bog'liq bo'lib, barchasi inson organizmining ichki sohalariga oid so'zlardir. Demak, bu holatda bu somatik frazeologizmlarni, o'z navbatida obyektdan kelib chiqib ma'no anglatishiga ko'ra splanchnonimik frazeologizmlar turkimiga kirgizamiz. Ya'ni, ular inson organizmining ichki organlari bilan bog'liq somatik frazeologizmlardir.

Ingliz tilidagi "heart" ("yurak") so'z komponenti qatnashgan somatik frazeologizmlarni tahlil qilish mobaynida ularning 80% fe'l so'z turkimi bilan

boshlanishini aniqlab oldik. Ularni yuqoridagi jadvaldagi struktural tahlildan ko'rish mumkin. Bundan tashqari ingliz va o'zbek tillaridagi "yurak" so'z komponentli iboralarni tahlil qilish natijasida, ingliz tilidagi iboralar ko'pincha **Verb + pronoun + noun** (fe'l+ olmosh+ ot) shaklida boshlanishi e'tirof etish mumkin. Masalan:

23.Lay something to heart **V + pron + prep + n**	Yurakka yaqin olmoq
24.Cross one's heart **V + pron + n**	Qasam ichmoq
25.Lose one's heart to **V + pron + n + prep**	Kimgadir yuragini bermoq
26.Imprint on somebody's heart **V + prep +pron + n**	Yuragini qamrab olmoq
27.Lay one's heart bare **V + pron + n +v**	Yuragini ochmoq
28.Move somebody's heart **V + pron +n**	Kimnidir yuragiga tegmoq
29.Open one's heart to smb. **V + pron + n + prep + pron**	Kimgadir yuragini ochmoq
30.Steal somebody's heart **V + pron +n**	Yuragini o'g'irlamoq

Ba'zi hollardagina ular ot (noun) so'z turkumi bilan boshlanadi.

Masalan: ***with heart and hand – (joni bilan) n + conj + n.***

Lekin o'zbek tilidagi "yurak" so'z komponentli iboralarni tahlil qilib ko'rsak ular 90% holatda ot+fe'l birikuvidan tashkil topganini ko'rish mumkin. Quyidagi jadvalda o'zbek tilidagi "yurak" so'z komponentli somatik frazeologizmlarning jadvalini ko'rib chiqamiz:

31.Tosh yurak	Ot + ot = n + n

32. Sevinch(i) yurag(i)ga sig'maydi	Ot + ot + fe'l = n + n + v
33. Siqilib ketgan yurag(i)	R + ot = adv +n
34. Yurag(i) achishdi	Ot + f = n + v
35. Yurag(i) betladi	Ot + f = n + v
36. Yurag(i) betlamadi	Ot + f = n + v
37. Yurag(i)ga vahima solmoq	Ot + ot + f = n + n + v
38. Yurag(i)ga tugmoq	Ot + f = n + v
39. Yurag(i)ga qo'l solmoq	Ot + ot + f = n + n + v
40. Yurag(i)ga g'ulg'ula solmoq	Ot + ot + f = n + n + v
41. Yurag(i)ga g'ulg'ula tushdi	Ot + ot + f = n + n + v
42. Yurag(i)dan urmoq	Ot + v = n + v

3.4. Ingliz tilidagi "qo'l" va "oyoq" so'z komponentli frazeologizmlarning o'zbek tilidagi ekvivalentlari yoki muqobil variantlarining tahlili.

Magistrlik dissertatsiyamizning ushbu qismida, ingliz tilidagi 80 ta "qo'l" va "oyoq" so'z komponentli somatik frazeologizmlarning o'zbek tilidagi ekvivalentlari va muqobil variantlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijajida, ingliz tilidagi 46 ta "qo'l" so'z –komponentli somatik iboralarning o'zbek tilidagi ekvivalentlari yoki muqobil variantlaridan 30 tasi "qo'l" so'z komponenti bilan ifodalanishini aniqladik.(ular ilovada to'liq shakilda qayd etilgan). Ularning 16 tasida "hand"("qo'l") so'z-komponenti,

o’zbek tilida boshqa so’z turkumlari bilan ifodalanishi ko’satildi. Quyida ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilamiz:

1.	a safe pair of **hands**	Ishongan **tog’(i)**
2.	be an **old hand**	**Oq qorani tanimoq**
3.	bite the **hand** that feeds someone	Tuzini yeb **tuzliq**iga tupurmoq
4.	come hat in **hand**	Tilanchilik qilmoq
5.	fight **hand** to **hand** .	**Yoqa**lshmoq
6.	give someone a big hand	Olqishlamoq
7.	hand down	Me’ros qilib qoldirmoq (pul, mahorat..)
8.	**hand in hand**	**Yelkama yelka**
9.	**hand** in glove	**Tili** biriktirmoq
10.	have a **free hand**	**Ozod qush**
11.	have the **upper hand**	**Katta og**’iz
12.	live from **hand to mouth**	**Qora qozon** qaynab turmoq
13.	put one’s hand to the plough	Ishga kirishmoq, bel bog’lamoq
14.	show one’s **hand**	**Qarta**sini ochmoq
15.	wait on someone **hand and foot**	**Jonu dili** bilan mehmon qilmoq

16.	have on **your hands**	**Bo'yniga** olmoq(javobgarlikni)

Yuqorida keltirilgan jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, ingliz tilidagi **"hand"** so'z komponenti , o'zbek tilidagi muqobil variantlarda ***"Jon-u dil", "bo'yin", "til", "yelka"-*** kabi inson tana a'zolari yoki ***"qarta", "qora qazon", "oq qush"," tog'", "yoqa"-*** kabi bir qator obrazlar bilan ifodalangan**.**

Masalan**: a safe pair of hands – Ishongan tog'(i)** iborasida "qo'l" so'z komponenti o'rnida "tog" obrazi qatnashgan. Bularning har ikkali ham semantik ma'no munosabatiga ko'ra ijobiy ma'noda ya'ni ***"suyanchig'i, ishonchli odami"*** ma'nosida ishlatilinadi.

Yoki, be an **old hand – Oq qorani tanimoq** iborasiga e'tibor qilsak. Bu iborada ham, "hand" so'z komponenti "oq qora" obrazi bilan ifodalangan. Lekin ular ham, semantik jihatdan aynan bir xil ma'noda ***"yaxshi – yamonni, foyda - zararni bilmoq; hayot tajribasiga ega bo'lmoq***" degan ma'noda ishlatiladi. Bu iboralarni sintaktik jihatdan tahlil qilsak: V+ adj+ noun = Adj+ verb. Demak, ular umuman bir biridan farq qiladi. Lekin bir birini o'rniga muqobil variant sifatida ishlatilinadi.

